

**N.EGAMBERDIYEVA, B.XODJAYEV,
D.ASQAROVA**

**TABAQALASHTIRILGAN
YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIKA
KOLLEJI O'QUVCHILARIDA KASBIY
SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH**

TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

N.EGAMBERDIYEVA, B.XODJAYEV,
D.ASQAROVA

**TABAQALASHTIRILGAN
YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIKA
KOLLEJI O'QUVCHILARIDA KASBIY
SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH**

(Uslubiy qo'llanma)

TOSHKENT — 2015

1752/2
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshDO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI**

UO'K: 37.018.18

KBK 74.57

E-18

E-18 N. Egamberdiyeva, B.Xodjayev, D.Asqarova. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarida kasbiy sifatlarni shakllantirish. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 64 bet.

ISBN 978–9943–990–39–5

Mazkur uslubiy qo'llanmada tabaqalashtirilgan yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarida kasbiy sifatlarni shakllantirish mazmuni, tabaqalashtirilgan yondashuvga asoslangan pedagog shaxsi modeli hamda tabaqalashtirilgan yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarida kasbiy sifatlarni shakllantirishning amaliy-texnologik jihatlari yoritib berilgan.

Uslubiy qo'llanma pedagogika kollejlari o'qituvchilari, talabalar va magistrantlar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, qo'llanmadan pedagogika kollejlari o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimida ham foydalanish mumkin.

UO'K: 37.018.18

KBK 74.57

Taqrizchilar:

Farid Yuzlikayev – pedagogika fanlari doktori, professor;

Raushan Medetova – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2015-yil 14-iyundagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978–9943–990–39–5



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo‘lining tanlab olinishi, shuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g‘oyasi va talablari asosida jahon ta‘limi standartlariga muvofiq keluvchi uzluksiz ta‘lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratdi. Ta‘lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta‘minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etildi.

Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarining yangi avlodini shakllantirish, ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifalari belgilangan.

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy modeli»ning birinchi va eng muhim komponenti shaxsdir. «Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste‘molchisi va ularni amalga oshiruvchisi» hisoblanadi. «Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta‘lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs – fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqi ro‘yobga chiqariladi»¹. Shaxs, ya‘ni pedagog ta‘lim jarayonini amalga oshiruvchisi sifatida o‘zini to‘liq namoyon etishi uchun kasbiy va shaxsiy sifatlarni egallashi lozim.

Buni, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ham «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch» asarida e‘tirof etadi: «Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo‘l avvalo ta‘lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan

¹ Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – B.41-42.

yana bir buyuk zot – o'qituvchi va murabbiylarning. olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi yavlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz»².

Ma'lumki, pedagogik tafakkur o'qituvchining mutaxassislik salohiyatini rivojlantirishi natijasida vujudga keladi. Bunda o'qituvchi o'zini pedagogik jarayonning yetakchi subyekt sifatida anglab yetishi va namoyon qila olishi kerak. Tabiiyki, bu jarayon maktab rahbariyatidan har bir o'qituvchiga imkon qadar texnologik, psixologik hamda amaliy yordam ko'rsatishni talab qiladi.

² Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.130.

I bob. PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Pedagoglik kasbining tarixiy taraqqiyoti va jamiyatda tutgan o'rni

Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, mas'uliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharafligini, yoritib, muallimning mahorati, ularga qo'yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi to'g'risida o'z mulohazalarini bildirganlar. Uyg'onish davrining yetuk namoyondalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Unsurul Ma'aliy Kaykovus, Abul-Qosim Umar Az-Zamaxshariy, Shayx Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz al-Koshifiy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo'lajak murabbiylarga muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Abu Nasr Forobiy (873-950) ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish, ta'lim-tarbiya usullari haqida fikr yuritadi. Forobiy ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim hisoblanadi. Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya esa – shaxsiy fazilatlarini, mas'ul hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba orqali o'rganishdir.

Forobiy o'zining «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida quyidagi fikrni bayon etgan. U: «Avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni o'rganish zarur. Undan so'ng umuman, jonli tabiat - o'simliklar va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi»³, - deydi.

Forobiy fanlarni tasniflash bilan birga, ularni qanday o'rganish masalasiga ham alohida to'xtalgan. Uning fikricha, har bir fanni o'rganuvchi oldin o'zini shu ilmni o'zlashtirishga tayyorlashi, so'ngra haqiqatni izlashi, o'zining salomatligi, odob-axloqiga jiddiyroq e'tibor berishi lozim. Kimki ilm hikmatini o'rganishni istasa, bu ishni yoshligidan boshlasin. .

Forobiy o'zining didaktik qarashlarida ustoz, o'qituvchining mas'uliyatini alohida ifodalaydi. «Ustoz, - deydi u, - shogirdlariga qattiq zulm ham,

³ Nishonova S. Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr tarixida barkamol inson tarbiyasi: Ped.fan.dokt. ... disa. Toshkent, 1998. – 288 b.

haddan tashqari ko'ngilchaklik ham qilmasligi lozim». Chunki ortiqcha zulm shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay quyadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Ayniqsa, Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Hikmat xulosalari», «Sharhlar» kabi asarlarida insonni tarbiyalash usullari haqida ham fikr yuritadi.

Forobiy ta'limotiga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayoni tajribali va bilimli o'qituvchilar tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, chunki «har bir bola o'zicha narsa va hodisalarni bila olmaydi hamda baxtga erisholmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim». Shuning uchun o'qituvchi bolalarning fe'l-atvoriga qarab ta'lim-tarbiyaning «qattiq» yoki «yumshoq» usullaridan foydalanishi mumkin» deydi. Bunda ustoz mudarrisga quyidagi talablarni qo'yadi:

Birinchi yo'l: tarbiyalanuvchilar o'qish va o'rganishga ishtiyoqmand bo'lsalar ta'lim-tarbiya jarayonida mudarris tomonidan yumshoq usullar qo'llaniladi. Bunda u qanoatbaxsh so'zlardan foydalanadi, chorlovchi ilhomlantiruvchi gaplar aytib o'quvchiga ko'nikma va malakalarni vujudga keltiradi, natijada o'quvchining iqtidori uyg'onib, g'ayrat-shijoati bilan bilim olishga, kasb egallashga intiladi;

Ikkinchi yo'l: tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsalar, mudarris tomonidan qattiq, ya'ni majburlovchi usullar qo'llaniladi. Bu asosan gappa ko'nmovchi va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu usul natijasida o'quvchi nazariy bilimlarni o'rganishga astoydil kirishadi, fazilati yaxshi bo'lib, kasb-hunarlarni va juz'iy san'atlarni egallashga intiladi. Maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahillariga aylantirishdir. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida inson kamolotiga juda katta e'tibor bergan. Uning aqliy ta'lim haqidagi fikrlarini o'rganar ekanmiz, eng avvalo, uning ilm olish, bilimdagi ta'lim uzviyliklari, o'qish, o'qitish va o'quv qurollari, yozuv belgilari haqida aytgan fikrlari g'oyat qimmatlidir.

Beruniy o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as-Saydana» kabi asarlarida bayon etgan. U o'z asarlarida dunyoni ilmiy bilish yo'llarini ko'rsatib berdi. Beruniyning fikricha, kishining aql bilan o'ylashi, xayol surishi, fikrlashi – bu uning bilim jarayoni manbai hisoblanadi.

Beruniy ta'lim-tarbiyaga o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, mashg'ulotlar davomida o'quvchini zeriktirib qo'ymaslik uchun ta'lim olishning turli yo'llari, shakl va metodlari ustida to'xtaladi. U: «Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirmaslik, hadeb narsa o'qib berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi» - deydi.

Beruniyning ta'kidlashicha, bilim olishda imkoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o'quvchida intilish va qiziqish bo'lishi kerak. Beruniy ilm olish yo'li bilan dunyoni bilishning bosqichlarini ko'rsatib beradi. Olim asosiy pedagogik, didaktik talab – taqqoslash, mashq, tajribalar o'tkazish deb biladi, bular bilim olishdagi uzviylikni yaxshilaydi. Beruniy o'sha davrda mavjud bo'lgan aniq faktlardan har birining maqsad va vazifalarini o'quvchi ongiga to'liq yetkazilgan bo'lishini talab qiladi. Beruniy hamma fanlarni bir-biri bilan bog'liq holda o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Har bir o'quvchini bilim olishdagi vazifasi haqida ham qimmatli fikrlar bayon etgan.

Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash jarayonida dunyoviy fanlarni bir-biri bilan bog'lab turli mavzularda mulohazalar yuritishni ta'kidlab: «Bizning maqsadimiz o'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslikdir, bir mavzuni qayta-qayta takrorlab o'qib berish o'quvchini zeriktiradi, xotirasini susaytiradi. Agar o'quvchi bir mavzudan boshqa bir yangi mavzuga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Bola ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa bolaga rohat bag'ishlaydi, deb behuda aytilmagan,— deydi.

Beruniy mamlakatning obodonligi ilm-fanning ravnaqi tufayli deb aytadi, yoshlarning baxt-saodati va kamoloti esa ularga bilim va ma'rifat beruvchi mudarrisarga bog'liq deb ta'kidlaydi. Ilm va ma'rifat sari intiluvchi tolib va mudarrisarga deydi: «Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor».

Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biridir. Ta'lim – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallash bo'yicha o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, ularning tafakkur va qobiliyatlarini o'stirish, dunyoqarash, ma'naviy sifatleri, axloqiy, estetik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Beruniy shaxs rivojlanishi, kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Ya'ni hozirgi davr pedagogikasida e'tirof etilganidek, shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiya muhim rol o'ynaydi. Beruniy insonning rivojlanishida ilm-ma'rifat, san'at, adabiyot, amaliy faoliyat, ayniqsa, ijtimoiy turmushning ham ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino pedagogik qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. Sharqda «Shayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo'lgan alloma - Abu Ali ibn Sino o'qituvchi mahorati haqida fikr yuritar ekan, quyidagilarni eslatib o'tadi:

– bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;

- berilayotgan bilimning talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- aqliy darajasiga mos ravishda ta’lim berish;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otishi darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

U o‘zining bir qator asarlarida, jumladan, «Donishnoma», «Shafo kitobi», «Tib qonunlari» va boshqalarda ta’lim-tarbiya masalalariga keng to‘xtaladi. Ibn Sino bola tarbiyalashning qiyin va murakkab tomonlarini alohida ta’kidlaydi. U o‘zining «Tib qonunlari» asarida ushbu masalaga «Tarbiya to‘g‘risida» degan bir bobni bag‘ishlaydi. Bunda u yosh bolalarda harakatlarni qanday tarbiyalash kerakligi to‘g‘risida qimmatli fikrlar bayon qiladi. U bolalarga nisbatan bo‘ladigan jismoniy jazoning har qanday holatini qattiq qoralaydi.

Yosh bolalar tarbiyasiga kattalarning ta’siri tez o‘tishini Ibn Sino alohida uqtiradi. Yosh bolalar hamisha o‘zidan kattalarga taqlid qiluvchan bo‘ladi. Ularning yaxshi tarbiya topishida yaxshi xulq, odobli va aqli kishilarning ta’siri ijobiy rol o‘ynaydi. Shuning uchun Ibn Sino yosh otionalarga va hamma tarbiyachilarga bolalarga shaxsiy namuna ko‘rsatishni maslahat beradi. Uning fikricha, bola yoshligidan boshlab faqat yaxshi qiliqlarga o‘rgatilishi zarur. Bu kelajakda uning mustahkam xarakterli bo‘lib yetishishiga olib keladi.

Ibn Sino inson rivojlanishida, kamolotida aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyani o‘zaro aloqada amalga oshirishning ilmiy asoslarini ko‘rsatib berdi. Bolaning har tomonlama rivojlanishida oila tarbiyasining o‘rni katta ekanligini, agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo‘lishini ta’kidladi.

Abul-Qosim Mahmud Ibn Umar Az-Zamaxshariy (1075-1144) jahon ilm-fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan mashhur olim va adibdir. U o‘z asarlarida halollik va pokizalikni, ilmga muhabbatni, mardlik va olijanoblikni ulug‘laydi. Ulug‘ mutafakkir «Navobig‘ ul-kalim» («Nozik iboralar») asarida kishilar ilmi bo‘lish, o‘qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo‘ladi, olim kishi oqil, bilimdon va chiroyli xushxat yozuvga ega bo‘lsa, bu uning kamolotga yetganligidan dalolatdir, deydi. Asarda mudarrislar to‘g‘risida noyob fikrlar bildirilgan: «Murabbiy o‘qib tursagina murabbiy bo‘la oladi, agar o‘qishni to‘xtatib qo‘yar ekan, unda murabbiylik o‘ladi»⁴.

⁴ Abul-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. «Nozik iboralar». – T.: «Kamalak», 1992, 16-bet.

Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy XIII asrda Eronda yashab ijod qilgan yirik shoir va mutafakkirdir. U faylasuf-shoir bo'lishi bilan birga tajribali murabbiy ham bo'lgan. Shoir «Guliston» asarida o'z davri mudarrislarini turli toifaga bo'lib, ularni ta'riflaydi. Qattiqqo'l o'qituvchilarni «..basharasi tirishgan, tili zahar, yomon xulqli, odamlarni ranjitadigan, ochko'z, uni ko'rish bilan shogirdlarining kayfiyati uchar» shogirdlar undan bilim va tarbiya olmaydilar. Yana bir toifadagi o'qituvchilar «...sodda, yaxshi va yumshoq ko'ngilli odam. Unar-unmasga so'zlamas edi va bolalarni ranjitadigan so'zlar og'zidan chiqmas edi. Uning farishtadek axloqliligi va mehribonligini ko'rgan bolalar murabbiyni mensimay qo'ydilar. Uning yumshoq tabiatlik ekanligini bilishib, ilmni ham o'rganmaydilar. Alqissa bolalar o'yin va to'polonga berilib vaqtni bekorga o'tkazdilar».

Bu holatga Shayx Sa'diy Sheroziy ikki xil ta'rif beradi. Birinchidan, Sa'diy yashagan davrda ham, undan keyingi davrlarda ham maktabda o'quvchilarni qattiqqo'llik bilan o'qitganlar. Ikkinchidan, Shayx Sa'diy bu holatni o'z ko'zi bilan ko'rgan va qattiqqo'l o'qituvchiga nisbatan norozilik bildirmagan, ilm va tarbiya berishda qattiqqo'llikni afzal ko'rgan: «jabr ustod boz mehr padar» deb ta'kidlaydi, ya'ni o'qituvchining jabri va jazosi ota mehridan ham afzalligini aytadi.

Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy XV asrda yashab ijod qilgan. U o'z asarlarida insonning yuksak axloqiy xislatlarini, go'zal fazilatlarini kuylaydi. «Iskandar xirodnomasi» asarida muallimlar to'g'risida noyob fikrlarni bildirgan: «muallim aqlli, adolatli, o'zida barcha yuksak fazilatlarini mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan murabbiy hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi». Shoir muallimning hayotdagi o'rnini quyidagi baytida bayon qiladi: «Ustod, muallimsiz qolganda zamon, Nodonlikdan qora bo'lurdi jahon»

Alisher Navoiy (1441–1501) ijodida muallimlarga munosabat alohida berilgan. Uning fikricha, har bir inson o'ziga ta'lim va tarbiya bergan ustozini, o'qituvchisini umrbod hurmat qilishi va uni e'zozlashi kerak. Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchiga yuksak talablarni qo'yadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda savodli o'qituvchi va mahoratli tarbiyachi bo'lish kerak. Alisher Navoiy o'qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki mahoratli tarbiyachi bo'lishi lozim deb ilm va odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligini ta'kidlab o'tadi.

Buyuk alloma o'zining «Mahbub-ul qulub» didaktik asarida o'qituvchi xalq oldida obro'ga, hurmat va izzatga sazovor bo'lishi kerakligini, u xalq g'ami bilan yashashini, xalqqa yordam beruvchi, xalq bilan birga bo'lishi lozimligini aytadi. Nodon, mutaasib, johil mudarrislarini tanqid qilib, mudarris olimlar orasidagi eng sara «malak qiyofali» kishi bo'lishi, ya'ni sof

ko'ngilli, pok qabli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va olijanob xislatlarini o'zida aks ettiruvchi bo'lishi kerak deydi. Ayniqsa, madrasalarda ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi mudarrislariga jiddiy talablarni qo'yadi: «Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasli katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bosh o'rin bo'lmasa, yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa... nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilish mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa, bu mudarris emas, yomon odatni tarqatguvchidir». Demak, mudarris bilimli, fozil va donishmand bo'lishi, kishilikning eng yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan olijanob va kamtarin bo'lishi, har qanday yaramas ishlardan holi va pok bo'lishi, o'z xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna bo'lishi lozim.

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatini eng murakkab va mashaqqatli ish ekanligini xolisona baholaydi: «Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan o'z qizlik qilardi. U esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borkim, u to'dada fahm-farosati ozlar ham bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat qilsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarda uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa unga (muallimga) qulluq qilsa arziydir».

Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy (1440–1505) «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtalgan. U muallimlarning shogirdlariga beradigan har bir o'gitini qadrlaydi. «Maraka joylarida» (dars-ma'ruza o'qiladigan joy) shogirdlar muallimning har bir so'zini e'tibor bilan tinglashini va unga amal qilishini ta'kidlaydi. Jumladan, alloma shunday yozadi: «Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi, deb so'rasalar, irodat ustiga, deb javob bergin. Agar irodat nima deb so'rasalar, samo va toatdir, deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so'rasalar nimani ustoz aytsa, uni jon qulog'i bilan eshitish, chin ko'ngli bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalga ado etishdir deb ayb». Husayn Koshifiy asarida shogirdlikning 8 ta odobini ko'rsatib o'tadi:

- birinchi bo'lib salom berish;
- ustozning oldida kam gapirish;
- boshni oldinga egib turish;
- ko'zni har tomonga yugurtirmaslik;
- gap so'ramoqchi bo'lsa, avval ustozdan ijozat so'rash;
- ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik;

- ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik;
- o'tirib turishda hurmat saqlash.

Husayn Koshifiy ustozlik shartlarini ham bayon qiladi: «Bilgikim hech bir ish ustozsiz amalga oshmaydi va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmaydi. Kimki, ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l. ...Agar ustoz tarbiyasini olgan komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazhabli o'z aybini ko'radigan, dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi».

Husayn Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida roli borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida yana bir asari «Axloqi Muhsiniy»da shunday yozadi: «Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalarga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir».

Abdulla Avloniy fikricha, bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir... Negaki fikrning quvvati, ziyati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdir»⁵.

Pedagogika tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ko'plab bunday qimmatli fikrlar diqqatimizni tortadi. Bugungi kunda ham mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari yetuk iymonni tarbiyalashda qo'l kelmoqda.

Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi V asrda Afina yaqinidagi Akadema so'zi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim-tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga ta'lim-tarbiya berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan edi.

Ular notiqlik san'atining yetuk namoyondalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zlari, baland va ta'sirchan ovozlari bilan ta'lim oluvchilarning tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining nazariya-

⁵ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi, 1992. -160 b.

sig, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me'morchilik san'ati bilan birga notiqlik san'ati ham murakkab va muhim san'at asari sifatida tan olingan. Notiqlik san'atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi va tafakkuriga qizg'in ta'sir etuvchi murakkab vosita sifatida rivojlantirganlar.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng takomillashgan davri bo'lgan. Shu sababli «Notiqlik san'ati» ham qizg'in rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda notiqlikning uchta qonuniyati umumiy shior sifatida e'tirof etilgan:

- o'quvchilarga tushuntirish (ma'lum bir mavzuni);
- o'quvchilar ongini uyg'otish (inson tafakkurini, ongini, maqsadini);
- har bir tinglovchiga huzur-halovat va qoniqlik uyg'otish.

Yunonistonda notiq ushbu qonuniyatlarga amal qilgan holda o'quvchilarga, ya'ni «tinglovchilarga halovat bag'ishlash» orqali ularni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchga sadoqatli bo'lishga, yaxshi amallarni bajarishga, axloq va odob qoidalariga rioya qilishga chorlar edi. Bu uning jamiyat oldidagi asosiy vazifasi hisoblanardi. Notiqlik san'atini chuqur egallagan, o'zlarining go'zal va chiroyli nutqlari bilan jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Dinarx, Giperid, Gorgiy, Sokrat, Isey, Esxil, Demosfen kabi namoyondalar mashhur davlat arboblari bo'lib yetishganlar.

Yunon faylasuflari o'qituvchilarning ta'lim va tarbiya berishda og'zaki nutqning shakl va qonuniyatlarini, mulohaza va isbot kabi mantiq ilmi qoidalarini chuqur o'zlashtirishlari lozimligini qat'iy talab qilganlar. Shuning uchun pedagog o'qituvchilar o'z fikrlari va tuyg'ularini o'quvchilar hamda tinglovchilar tafakkuri va ongiga chuqur singdira olganlar va keskin ta'sir o'tkazganlar. Har bir pedagog o'zlarining notiqlik san'ati ustida tinimsiz mashg'ulotlar olib borganlar, sehrli ovoz sohibi bo'lish uchun nutq texnikasining barcha qonuniyatlariga amal qilganlar. Ular o'z nutqlarini mafkuraviy va siyosiy kurash hamda yosh avlodni tarbiyalash quroli deb hisoblaganlar.

Mashhur faylasuf olim Sokrat (eramizdan avvalgi 469—399) o'quvchilar bilan savol-javob usuli orqali ta'lim-tarbiya berishning suhbat metodiga asos solgan. Sokratning shogirdi Platon o'z ustozini g'oyalari davom ettirib, o'quvchilar bilan savol-javob usulini notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyati cheksiz ekanligini bayon etadi hamda uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholaydi.

Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda notiqlik san'atining ahamiyatini yoritib berish hamda uning rivojlanishi faylasuf olim Demosfen

(eramizdan avvalgi 384—322) nomi bilan uzviy bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Barcha dunyoviy bilimlarni faqat notiqlik san'atining olijanob qudrati asosida tinglovchilar tafakkuriga yetkazish mumkin deb ta'kidlagan edi faylasuf. Faqat Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining yetuk namoyondasi, ya'ni elitasi sifatida mashhur bo'ldi. U davlat tribunasi siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'risidagi muammolar Yevropa olimlari Ya.A.Komenskiy, Djon Lokk, G.Pestalotssi, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya.A.Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini mukammal tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi rolga yuqori baho berib, o'qituvchilik «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, o'qituvchi o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A. Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalotssi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A. Disterverg o'qituvchining ta'limdagi rolga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini asarlarida yoritib bergan.

A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, K. D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari g'arb mutafakkirlari g'oyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen

mulohazalariga ko'ra, o'qituvchining asosiy xislati – bu uning bolalar bilan munosabatda bo'layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisha olmaydi.

Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, o'qituvchi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir Qonun yoki Programma, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rini bosa olmaydi deb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni qayta tayyorlovchi kurslar tizimini tashkil etishni u ilk bor asoslab bergan.

K.D.Ushinskiy o'qituvchining mashaqqatli mehnatini ta'riflab shunday deydi: «Hali yetilmagan va fikri xayoli tarqoq bo'lgan o'ttiz yoki qirqta o'quvchining ongini butun dars davomida mashg'ul qilib turish uchun o'qituvchi o'z so'zlari va bergan masalalari to'g'risida ko'p bosh qotirishi, serdiqqat bo'lishi kerak. Mana shu sababdan bilimi bo'lgan har bir kishi o'qituvchi bo'lishga layoqatli bo'lavermaydi. Jamiyat tomonidan hamma vaqt ham yetarlicha ta'rif qilinmaydigan bu vazifani insof bilan ado qilmoq uchun zo'r matonat va mahorat talab qilinadi».

K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, o'qituvchi qalbining bolalarga nisbatan mehrini bildiruvchi axloqiy xislatlaridan biri, muallimning tarbiyaviy kuchini va qobiliyatini ko'rsatadigan ma'naviy oynasi ijtimoiy qimmatga ega bo'lib, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda namoyon bo'ladi. Pedagogik faoliyatning yana bir muhim tarkibiy qismi o'qituvchining xapakteri va his-tuyg'ularida, uning o'quvchilar bilan muloqotga kirishish usulida namoyon bo'luvchi pedagogik-psixologik takt (odob, axloq) xususiyatlarini qo'llashdir. Uning fikricha psixologik takt (odob, axloq) hayotimizning barcha jabhalarida g'oyatda keng qo'llaniladigan faoliyat turi, shuning uchun ushbu taktlarga ega bo'lmasdan, odamlar orasida hech qanday muloqot va nutq qobiliyatining o'zi ham bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlaydi.

«Aqli, fikran boy, bag'ri keng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziqitirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham..., aql – aql bilan tarbiyalanadi, vijdon – vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik – bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan, – deb ta'kidlagan edi mashhur rus pedagogi V.A.Suxomlinskiy. – O'qituvchi o'zining butun borlig'i, kundalik hayoti, ma'naviy madaniyati bilan hamkasblari va o'quvchilarga o'mak bo'ladi va ularni o'z ortidan ergashtiradi».

O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari pedagog olim V.A. Slastyonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: «O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayan-sagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar – taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir, amaliyot bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat – falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezsiz pedagogik amaliyotni maqsadli qurish juda mushkul». Demak, o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni mukammal egallash talab etiladi, balki pedagogik amaliyotni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy - nazariy ma'lumotlarga ham ega bo'lish lozim.

Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy o'qituvchi fazilatining mukammalligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtda bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jon-dilidan sevishida ekanligida ko'rgan. Uning ta'kidlashicha, «agar o'qituvchi faqat ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordiyu, ikkala xislatni ham o'zida mujassamlashtirsa, u holda u mukammal va mahoratli o'qituvchi bo'la oladi».

Ma'lumki, pedagogik mahorat tizimida o'qituvchining pedagogik nazokati (odobi) muhim mavqega ega. O'qituvchi nazokatsiz, kasb odobisiz yuksak cho'qqilar sari odimlay olmaydi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashilganda, muallifning so'zlari, o'qituvchi pedagogik mahoratiga qo'yilgan talablarga mos va hamohangdir.

Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risida quyidagi fikrlarini bayon qilgan: «Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rolni o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe'limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik qurol bo'lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko'ngil azoblari bilan, hijronli his-tuyg'ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko'ngil zahmatisiz ish bitirish mumkin bo'lsa, pedagog ham ko'ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo'ladi. O'quvchiga ba'zan muloqotda ko'ngil azobini namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o'ynashni ham bilishi kerak. Tasodifiy pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganida, tushkun bir ahvolga tushganida ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa

holatga, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan o'tkazishni ham bilishi kerak.

Biroq shunchaki tashqi, sahnaviy rol o'ynash yaramaydi. Bu o'yinda pedagogning ajoyib shaxsiy mahorati bilan bog'laydigan qandaydir kamar bor, bu sizning go'zal xulqingizni namoyish etib bog'lovchi rolingiz. Bu sahnadagi o'yin o'lik bir holat yoki texnika emas, balki qalbingizdagi yashirin his-tuyg'ularingizni, mehringizni namoyon etuvchi haqiqiy jarayondir».

Pedagog olim o'qituvchining hech bir kasbga o'xshamaydigan kasbiy faoliyatini yuksak baholab, «Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin» – deb yozgan edi.

Shunday qilib, yevropa mutafakkirlari o'z ilmiy asarlarida o'qituvchining bir qator muhim fazilatlarini haqida fikr yuritganlar. Bularning qatoriga quyidagi fikrlarni alohida qayd etish lozim: o'qituvchining har tomonlama barkamol bo'lishi, o'zining yuksak xislatlari va his-tuyg'ulari bilan boshqa kasbdagi kishilardan ajralib turishi, bolalar ruhiyatiga oson kira olish qobiliyati, darslarni o'zlashtirishda orqada qolganlar bilan individual ishlar olib borish, o'quvchilar diqqatini o'ziga qaratish mahorati, mustaqil ishlash va o'z mahoratini, malakasini oshirish, pedagogik-psixologik odob (takt)ga ega bo'lish, notiqlik san'atini puxta bilish kabilardir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Sharq va G'arb mutafakkirlari tomonidan tahlil qilingan o'qituvchi kasbi haqidagi ko'pgina mulohazalar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda, demak, millati va kelib chiqishidan qat'i nazar ajdodlar merosini takomillashtirish evaziga hozirgi kunda ta'lim va tarbiyani yanada yuksak bosqichlarga ko'tarish mumkin.

1.2. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va o'ziga xosliklari

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obyektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subyektlari — ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. O'qituvchining pedagogik

faoliyatida ijobiy natijalarga erishishi, mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi⁶.

Pedagogik faoliyatning maqsadi asrlar davomida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning umuminsoniy g'oyasi sifatida xizmat qilib kelayotgan tarbiyaviy ishni amalga oshirish bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatning asosiy turlari sifatida tarbiyaviy ish va o'qitish aks etadi. Tarbiyaviy ish – bu tarbiyaning tizimliliği, to'laligi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati – zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikkita: faol va majmuaviy yondashuvlar yotadi. Yondashuvlarning birinchisi, faoliyatning bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot kabi turli ko'rinishlarini tashkil etishni talab etadi. Ikkinchi majmuaviy yondashuv esa, faoliyatning barcha ko'rinishlarining yagona jarayonga ta'siri bilan tabiiy «qo'shilib» ketishida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy ishlar, ayni paytda, o'ziga axloqiy, estetik, hissiy va aqliy (intellektual) ta'sirlarni qamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo'nalishiga ishora qilsa, majmuaviy yondashuv – uning mazmun tabiatini (pedagogik maqsad (vaziyat, tarbiyaviy maqsadning asosiy va bog'liq tomonlarini shakllantirish)ni; rejalashtirish; tashkil etish va tayyorlashni; ishni bevosita amalga oshirishni; erishilgan natijalar tahlilini) belgilaydi⁷.

O'qitish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakatidir. *O'rganish* – o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyatini aks ettirsa, o'rganish anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni bo'lib, avval egallanganlari o'zgaradi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatning o'zaro bir-biri bilan aloqador quyidagi uch tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi: konstruktiv, tashkilotchilikka doir va kommunikativ. Konstruktiv faoliyat mazmunli (o'quv materialini tanlash va tizimlashtirish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv operativ (o'zining va o'quvchilarning harakatlarini rejalashtirish); konstruktiv-moddiy (pedagogik jarayonning o'quv-moddiy bazasini loyihalash) jihatlarni o'zida aks ettiradi. Tashkilotchilik faoliyati – o'quvchilarni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish. Kommunikativ faoliyat – pedagogning ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar jamoasi, jamoatchilik, mahalla va ota-onalar bilan munosabatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi

ALISHB NAOVIY NOMIDAGI

TeshDO'TAU

AXBOROT RESURS MARKAZI

⁶ Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011. – B.13-14.

⁷ Ishmuxammedov R.J., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiya...

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi»⁸.

3. Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonda o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqan o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

– jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini «o'sib» uning pedagogik nuqtayi nazariga aylanishi;

– muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;

– o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

⁸ Ishmubammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2008. -181 b. 146-bet.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmazlik lozim.

Pedagog shaxsining insonparvar yo'nalganligi quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi:

I. Ta'lim maqsadi, o'quv-tarbiya jarayonining shaxsiga yo'naltirilganligi sifatidagi shaxsiga yangicha qarash: 1) shaxs pedagogik jarayonning obykti emas, subykti sifatida aks etadi; 2) shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta'lim tizimi maqsadi; 3) har bir o'quvchi qobiliyatli, ko'plab o'quvchilar iqtidorli; 4) shaxsning muhim sifatleri sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi.

II. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlash-tirish: 1) pedagogik muhabbat, o'quvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash; 2) o'quvchiga yuksak ishonch bilan qarash; 3) hamkorlik, muloqot mahorati; 4) to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish; 5) ijobiy rag'batlantirishning muhimligi; 6) o'quvchi shaxsiga ta'lim subykti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat; 7) o'qituvchi va o'quvchi huquqlarini tenglashtirish; o'quvchining erkin tanlashga bo'lgan huquqi tushuniladi.

III. Zamonaviy sharoitda to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan natija bermaydigan metod sifatida voz kechish. Majburlashsiz o'qitish quyidagilar bilan tavsiflanadi: 1) majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik; 2) o'qitishga tug'ma qiziqishlarni ko'payganligi; 3) majburlashning o'rmini muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan istak bilan almashtirish; 4) o'quvchilarni erkinlik va tashabbuskorlikka qo'yib berilishi; 5) jamoa

orqali bilvosita o'quvchilarning qo'llanilishi; 6) o'quvchilarga ularning subyektivligi, o'z-o'zini namoyon etishi, ijtimoiylashuvi, madaniy tenglashuvi, hayotiy o'z o'rmini belgilashiga yordam ko'rsatish, pedagogik qo'llab-quvvatlash.

IV. Individual yondashuvni yangicha talqin etish: 1) «o'quv fanidan o'quvchiga qarab borish emas, o'quvchidan o'quv faniga borish» tamoyilining bajarilishi; 2) o'quvchilarning qobiliyatlari va mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qitish; 3) o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchiga yo'nalganlikdan voz kechish; shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash; 4) shaxsni psixologik-pedagogik tashxis etish (qiziqishlari, qobiliyatlari, yo'nalganligi, Men-konsepsiyasi, xarakteri, fikrlash jarayonlarining o'ziga xosligi)ning qo'llanilishi; 5) shaxsning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'ziga xosliklarini hisobga olish.

V. Ijobiy ma'nodagi «Men-konsepsiyasi»ni shakllantirish: 1) pedagogik muloqotning o'quvchilarda o'ziga ijobiy munosabatni rivojlantirishning yo'nalganligi; 2) hayotiy faoliyatning ijobiy yo'l-yo'riq va motivlarini shakllantirish⁹.

Pedagogik mahorat o'z ichiga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik deganda esa, pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi¹⁰.

Pedagogik qobiliyatlar – ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar va o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zaruriy shakl, metod va vositalarni samarali qo'llay olishdir.

Pedagogik qobiliyatlarni shartli ravishda uch katta guruhga bo'lish mumkin: shaxsiy, didaktik va tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar.

⁹ Egamberdieva N.M. Shaxsiy-insonparvarlik yondashuv asosida o'quvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish: Pedagogika fanlari doktori ... diss. – T., 2010. – B. 88-89.

¹⁰ Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2006. – B.142.

Shaxsiy qobiliyatlarga quyidagilar kiradi: 1) ta'lim oluvchilarga ijobiy yo'nalganlik – ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishga, muloqot qilishga intilish, ularga nisbatan do'stona munosabat, xayrixohlik; 2) vazminlik, o'z hissiyotlarini nazorat qila olishi – har qanday vaziyatda o'zini yo'qotib qo'ymaslik. Lekin vaziyat talab qilganda o'qituvchi zaruriy tarzda o'z hissiyotlarini namoyish qiladi (quvonch, qayg'u, g'azab). Lekin vazminlik befarqlikka aylanib ketmasligi kerak; 3) o'z psixik holati, kayfiyatini boshqara olish – o'qituvchi hayotida, faoliyatida har qanday noxush holat ro'y bergan bo'lsa ham o'zini tetik tutishi kerak.

Didaktik qobiliyatlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: 1) tushuntirish qobiliyati – o'rganilayotgan materialni ta'lim oluvchilar uchun tushunarli qilib yetkazish, buning uchun o'qituvchi ta'lim oluvchilar uchun yangi bo'lgan materialni «ularning ko'zlari bilan ko'ra bilishi kerak»; akademik qobiliyat – o'z fanini, sohasini chuqur bilishi, umumiy va ilmiy dunyoqarashning kengligi; nutq qobiliyati – o'z fikrlari, his-tuyg'ularini tushunarli qilib ifoda etishi, muloqotning noverbal vositalari: mimika va pantomimikalardan o'rinli foydalana olishi. Bunda suhbat predmetini bilish, yetkazayotgan ma'lumotlariga nisbatan ishonch, nutqni «og'irlashtiruvchi» tuzilmalardan foydalanmaslik, qo'llanilayotgan atama va tushunchalarga izoh berish, nutq tezligi va ovoz balandligi nazarda tutiladi.

Tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi: tashkilotchilik qobiliyati – o'quvchilar jamoasini tashkillay olish va o'z faoliyatini tashkillay olish; rejalashtirish, nazorat qilish; kommunikativ qobiliyat – o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda muloqotni to'g'ri tashkillash; pedagogik kuzatuvchanlik – o'quvchining ko'rinishidan undagi ichki kechinmalar, kayfiyatini bilib olish, sezgirlilik; pedagogik takt – ta'lim oluvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatishda aniq vaziyatdan, ta'lim oluvchi shaxsi xususiyatlaridan kelib chiqish va uning nafsoniyatiga tegmaslik; suggestiv qobiliyat – ta'lim oluvchiga emotsional-irodaviy ta'sir o'tkazish, talab qo'yish va talabning bajarilishini qat'iy nazorat qilish (bir tomondan qo'rqitishsiz, qistovsiz – boshqa tomondan bo'shlik qilmasdan), pedagogik prognoz – o'z harakatlari natijasini, shaxsida bo'lib o'tadigan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish; diqqatni to'g'ri taqsimlay olish – bir paytning o'zida bir necha faoliyatni olib borish: materialni bayon qilish, o'z fikrlarini kuzatib borish, berilayotgan savollarga javob berish, ta'lim oluvchilar jamoasi xulqini nazorat qilib turish.

Pedagogik adabiyotlarda o'qituvchining kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi mahsuldor sabablar (omillar) umumlashtirilib pedagogik madaniyat nomi bilan qayd etiladi. Boshqa tushunchalar singari pedagogik madaniyatning ham bir necha xil ta'riflari mavjud. Biroq barcha ta'riflarda pedagogik madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, ya'ni aksiologik, faoliyat va shaxsga yo'naltirilganlik nuqtayi nazaridan talqin

etilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogika tayanadigan pedagogik qadriyatlar majmuidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtayi nazariga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi subyekt sifatida kasbiy yetuk pedagog shaxsining muhim sifati. Faoliyatli yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik qadriyatlarning tatbiq etilishini ta'minlovchi, o'qituvchi kasbiy faoliyatining o'ziga xos usullari majmuidir¹¹.

Pedagogik madaniyatning mufassal tavsifi L.D.Stolyarenko tomonidan quyidagicha ochib berilgan: «Pedagogik madaniyat – bu umuminsoniy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib, unda eng avvalo, avlodlar almashinuvi va shaxsning ijtimoiylashuvi kabi tarixiy jarayon uchun xizmat qilishda insoniyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy va moddiy qadriyatlar aks etgan»¹².

O'qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi:

1) shaxsga yo'nalganlik: e'tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik tuyg'usining mavjudligi;

2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, olijanoblilik, xolislik;

3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o'z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;

4) qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma'naviy ehtiyojlarning ko'pqirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyati.

1.3. Zamonaviy pedagog shaxsi modelining umumiy tavsifi

O'qituvchilik faoliyati «Inson-inson» kasb guruhiga kiradi. Pedagog professiogrammasiga e'tibor qaratilganda, biz mutaxassis yuksak axloqli, kuchli irodaga egalik, aniq maqsadga egalik, odamlarni tushuna olishi, e'tiborli bo'lishi, tasodifiy vaziyatlarga tez yo'nalgan bo'lishi, hissiy javobgarlikka ega bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

M.G.Davletshinning fikricha, pedagogik professiogramma (kasbiy tasnifnoma)da bo'lajak pedagoglarga xos quyidagi sifatlar aks etishi kerak:

¹¹ Завягина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – С.239.

¹² Столяренко Л.Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – С.51.

– shaxsiy xislatlar (bolalarni yaxshi ko‘rish, ularni sevish, mehnat-sevarlik, jamoat ishlarida faollik va boshqalar);

– kasbga xos bilimlarga egalik (ta‘lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi va boshqalar);

– o‘z kasbga xos xislatlar (hozirgi zamon pedagogikasining metodologik bilimlarni egallashi, kuzatuvchanlik, diqqat-e‘tiborni taqsimlay olishi, pedagogik fantaziyaning rivojlanishi, pedagogik takt va hokozolar);

– shaxsiy-pedagogik uddaburonlik (mashg‘ulotlar uchun zarur materiallarni tanlay olish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olish, o‘quv maqsadlarini rejalashtira olish va boshqalar);

– muloqotga kirisha olish (kommunikativlik) malakaga egalik (bolalarni o‘ziga qalb etishni bilish, bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilish va hokozolar);

– gnostik (bilish) malakalariga egalik (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay olish, o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi va boshqalar);

– ijodiy xislatlari (pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilish, o‘quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati va hokozolar).

E.M.Ivanov kasbiy faoliyatga individ va mehnat jamoasining ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy o‘zaro harakati usuli sifatida qaraydi. B.G.Ananov, K.K.Platonov va M.O.Ochilovlar kasbiy faoliyatda individ va xodim shaxsini shakllantirishga ta‘sir etishda o‘zaro aloqadorlikning mavjudligini qayd etib o‘tishadi.

Pedagogik mutaxassislik – mazkur kasb doirasidagi, ta‘lim natijasida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini tavsif etuvchi hamda ularning qo‘yilishi va o‘zlashtirayotgan malakasiga muvofiq muayyan kasbiy-pedagogik vazifalarni hal etilishini ta‘minlovchi faoliyat turi.

Pedagogik malaka – mutaxassisning ma‘lum turdagi vazifani hal etishdagi imkoniyatlarini ifodalovchi kasbiy-pedagogik tayyorlanganlik darajasi va ko‘rinishi.

Kasbiy faoliyat yaxlit tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi. I.P.Podlasiyning kasbiy salohiyatning tuzilishiga doir tasnifidan kelib chiqib, N.M. Egamberdiyeva pedagogik ta‘limdagi kasbiy yetuklik (professionallashuv), ijtimoiylashuv, insonparvarlashuv va madaniy ijodkorlikning zamonaviy yo‘nalishlariga muvofiq keluvchi quyidagi muhim tuzilishli tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatadi:

- pedagogik madaniyat;
- pedagog ijodkorligi;
- pedagogik aql-idrok;

- kasbiy chuqur bilimga egalik;
- individual faoliyat uslubi;
- ijodiy tashabbusning rivojlanishi;
- individual faoliyat;
- insonparvarlikka yo'naltirilganlik;
- ijtimoiy faollik.

Istalgan kasbiy faoliyat zaruriy kasbiy sifatlarni shakllantirish tizimi asosida amalga oshadi. Bundan kelib chiqadiki, istalgan faoliyat belgilangan sifatlarga to'plamini talab etadi. A.V.Karpovning fikricha, kasbiy zaruriy sifat – bu uni belgilangan me'yor darajasida amalga oshirish uchun yetarli va zarur faoliyat subyekti individual xususiyatidir. Uning ta'kidlashicha, kasb vazifasida faqatgina shaxsiy psixik emas, balki psixikadan tashqari – somatik, biologik, morfologik, tipologik, neyrodinamik xususiyatlar ham yuzaga chiqishi mumkin. Bundan tashqari olim kasbiy yetuklikning tuzilishini ifoda etuvchi individual sifatlarga guruhini ham belgilab beradi:

- absolyut kasbiy zaruriy sifatlarga o'rtacha darajadagi faoliyatni bajarish uchun zarur xususiyat;
- o'zida faoliyatning yuqori va sifat ko'rsatkichlariga erishish imkoniyatini aniqlab beruvchi muhim kasbiy zaruriy sifatlarga;
- u yoki bu faoliyatni amalga oshirishga motivatsion tayyorlik;
- anti kasbiy zaruriy sifatlarga – ularning rivojlanishining minimal darajasini taklif etuvchi yoki biror va shunga o'xshash faoliyatda qarama-qarshi ko'rsatkich sifatida yuzaga chiquvchi xususiyatlar.

N.M.Egamberdiyevaning fikricha esa, o'qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

- 1) shaxsga yo'nalganlik: e'tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik his-tuyg'usining mavjudligi;
- 2) kasbiy-axloqiy sifatlarga: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylilik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, olijanoblilik, xolislik;
- 3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o'z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;
- 4) qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma'naviy ehtiyojlarning ko'p qirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyati.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlarni quyidagicha turkumlash mumkin:

Pedagogning kasbiy zaruriy sifatlari: mehnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, maqsadni aniq belgilay olish, unga erishish

yo'llarini tanlay olish, tashkilotchilik, qat'iyatlilik, adolatlilik, mahorat, pedagogik takt, talabchanlik, ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallash, o'z mehnati samaradorligini muntazam oshirib borish va boshqalar.

Pedagogning shaxsiy sifatlari: insoniylik, samimiylilik, mehribonlik, sabr-chidamlilik, tartiblilik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, javobgarlik, burchga sadoqat, insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, iltifotlilik, qalban g'amxo'rlik ko'rsatish va boshqalar.

O'qituvchining pedagogik qobiliyati tizimida kasbiy bilimlar asosida shakllanadigan qoida va tamoyillarning anglanishi muhim ahamiyati ega. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, o'qituvchining kasbiy bilimlari darajasini quyidagi tarzda turkumlash mumkin: 1) metodologik – umum-falsafiy doirada rivojlanish qonuniyatlariga doir bilimlar, tarbiya maqsadining shartlanganligi va boshqalar; 2) nazariy - pedagogika va psixologiyaning qonunlari, tamoyillari va qoidalari hamda faoliyatning asosiy shakllari; 3) metodik – o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish darajasi; 4) texnologik – aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etish darajasi; 5) kasbiy fikrlash – pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish va umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish qobiliyati.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni umumlashtirish asosida zamonaviy pedagog shaxsi modelini quyidagicha aks ettirish mumkin (2.1.1-rasm):

ZAMONAVIY PEDAGOG

Fundamental bilimlar

1. Falsafiy, sotsiologik.
2. Insonshunoslik.
3. Madaniy.
4. Metodologik.
5. Psixologik-pedagogik.
6. Maxsus (fan bo'yicha).
7. Metodik.

Ko'nikmalar

1. Tahliliy.
2. Prognostik.
3. Axboriy.
4. Proyektiv.
5. Refleksiv.
6. Tashkilotchilik.
7. Perseptiv.
8. Oriyentatsion.
9. Safarbarlik.
10. Pedagogik texnika.
11. Tadqiqotchilik.
12. Shaxsga yo'naltirilgan.

Shaxsiy va kasbiy sifatlar

1. Fuqarolik va vatanparvarlik.
2. Ijtimoiy faollik.
3. Milliy g'oya targ'ibotchisi.
4. Insonparvarlik.
5. Intelligentlik.
6. Eruditsiya.
7. Ma'naviy va axloqiy yetuklik.
8. Qadriyatli yo'nalganlik.
9. Raqobatbardoshlik.
11. Mehnatsevarlik va ishchanlik.
12. Emotsional va irodaviy sifat.
13. Pedagogik layoqatlilik.
14. Pedagogik tafakkur.
15. Kasbiy burch.
16. Pedagogik takt.
17. Pedagogik madaniyat.
18. Tolerantlik.
19. O'z-o'zini takomillashtirish.

Insonparvar, ijodiy, o'z-o'zini takomillashtirishga qobiliyatli, jamiyat bilan uyg'unlikda harakatlanadigan shaxs

Kompetentlik

1. Fundamental va integrallashgan bilim sohalari.
2. Umumlashgan ko'nikma va qobiliyatlarni egallash.
3. Kasbiy-pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuv.
4. Pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash.
5. Pedagogik vazifalarni kasbiy va ijodiy hal etish ko'nikmasi.
6. Ijodkorlik mahorat.
7. Kompyuter savodxonligi.
8. Chet tillardan birini mukammal bilishi.

Qobiliyatlar

1. Didaktik.
2. Gnostik (bilishga doir).
3. Konstruktiv-tashkilotchilik.
4. Emotsionallik, ochiqlik.
5. Kommunikativ.
6. Suggestiv.
7. Tadqiqotchilik.
8. Kreativ (ijodiy).
9. Kasbiy rivojlanishga qobiliyatlilik.
10. Tezkorlik.
11. O'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilik.
12. Empatiyaga qobiliyatlilik.
13. Notiqlik.

Ta'lim olganlikni tashxis etish

1. BKMIlarni tekshirish mezonlarini ishlab chiqish.
2. BKMIlarni nazorat qilishga doir test savollari, topshiriqlar to'plamini yaratish.
3. Baholashning reyting tizimidan foydalana olish.

1.3.1-rasm. Zamonaviy pedagog shaxsi modeli.

II bob. TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARIDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY-TEXNOLOGIK JIHATLARI

2.1. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarida kasbiy sifatlarni shakllantirish mazmuni

Ma'lumki, bugungi kunda ta'limning boshqa bosqichlari singari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida ham tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o'qitishdan keng foydalanilmoqda. Agar mazkur yondashuvni o'quvchilarning kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayoniga tatbiq etadigan bo'lsak, ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: o'quvchilarning kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayonini tabaqalashtirish uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratishdir (2.1.1-rasm).


2.2.1-rasmdan ko'rinadiki, tabaqalashtirish ta'limning xilma-xil maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilish bilan birga, o'quvchilarning kasbiy shakllanishiga ham imkon berishi kerak. Shuningdek, mazkur jarayonda har bir o'quvchiga tanlash imkoniyatining berilishi, ularning innovatsion faoliyat subyekti sifatida faoliyat yuritishi uchun asos bo'lib, o'z kasbiy sifatlarni shakllantirishni o'zi boshqara olishiga imkon beradi.

O'quvchilarning kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvning qo'llanilishi ularning xohish-istaklari, qiziqishlari, psixofiziologik xususiyatlari (yosh, bilish imkoniyatlari), pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olinishini taqozo etadi. Ana shu tarzda o'quvchilarning xususiy va umumiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, xilma-xil o'quv dasturlari asosida ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Gulboyevning fikricha, tabaqalashtirish ko'p qirrali va murakkab jarayon sifatida qator tashkiliy-pedagogik, psixologik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy muammolar bilan bog'liq masala hisoblanadi.

Mazkur muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quvchilarning mustaqil ta'limini modernizatsiyalash;
- ularning vaqti va kuchini maqsadli yo'naltirish;
- o'quvchilarning real bilish va ijodiy imkoniyatini hisobga olish asosida malaka oshirish jarayonini tashkil etish kabilar.



2.1.1- rasm. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarining kasbiy sifatlarni shakllantirishning blok-sxemasi (N.Avliyaqulov tomonidan taqdim etilgan namuna asosida).

Pedagogikada o'quv jarayonini tabaqalashtirishning uch asosiy shakli keng tarqalgan: 1) ichki, ya'ni har bir guruh ichida; 2) tashqi, ya'ni maxsus, real o'quv imkoniyatlarini inobatga olgan holda; 3) individual. Tadqiqotimiz obyekti bilan bog'liqlikda esa, biz o'quvchilarning kasbiy sifatlarini jarayonini tabaqalashtirishda ularning kasbiy yo'nalganlik darajasiga tayandik. O'quvchilarning kasbiy yo'nalganlik darajasini aniqlash va ularni tabaqalashtirish maqsadida so'rovnoma, test va amaliy topshiriqlar vositasida I-Toshkent pedagogika kolleji, Yunus Rajabiy nomidagi Toshkent pedagogika kolleji, Toshkent viloyati pedagogika kolleji o'quvchilari o'rtasida nazorat o'tkazildi. Nazorat topshiriqlarini tuzishda o'quvchilarning kasbiy yo'nalganlik darajasining yuqori, o'rta, quyi darajalari asos qilib olindi.

Yuqori daraja – o'quvchi pedagoglik kasbiga doir shaxsiy va kasbiy sifatlarni o'zida tarkib toptirishga intiladi; pedagogik mahoratga doir adabiyotlar ustida muntazam ishlaydi; o'z kasbiy sifatlarini shakllantirish ko'nikmasiga ega; autopsixologik treninglardan samarali foydalanadi.

O'rta daraja – o'quvchi pedagoglik kasbiga doir shaxsiy va kasbiy sifatlarni bilan doimiy tanishib boradi; pedagogik mahoratga doir adabiyotlar ustida yetarlicha ishlaydi; o'quv topshiriqlarini bajarishga ijodiy yondashadi; autopsixologik treninglardan foydalana oladi.

Quyi daraja – o'quvchi o'qituvchi pedagoglik kasbiga doir shaxsiy va kasbiy sifatlarni o'zida tarkib toptirishga intiladi; pedagogik mahoratga doir adabiyotlar ustida ishlashga doir ehtiyoj va qiziqishi yorqin namoyon bo'lmaydi; o'quv topshiriqlarini bajarishda reproduktiv faoliyatga tayanadi.

Mazkur mezonlar asosida o'quvchilarning kasbiy yo'nalganlik darajasi o'rganalib, quyidagi 2.1.1-jadvalda aks ettirildi:

Pedagogika kolleji o'quvchilarining kasbiy yo'nalganlik darajasi

2.1.1-jadval

№	Mezonlar	Ko'rsatkichlar % hisobida (jami 115 nafar respondent)		
		Yuqori	O'rta	Quyi
1.	Pedagoglik kasbiga doir shaxsiy va kasbiy sifatlarni o'zida tarkib toptirishga intilish	15	38	47
2	Pedagogik mahoratga doir adabiyotlar ustida ishlash	12	36	52
3.	O'z kasbiy sifatlarini shakllantirish ko'nikmasiga egalik	6	18	66

2.1.1-jadvalning davomi

4.	O'quv topshiriqlarini bajarishga ijodiy yondashish	16	34	50
5.	Autopsixologik treninglardan samarali foydalana olishi	18	38	44
6.	Bo'lajak kasbiy faoliyatga qiziqish va ehtiyojlarning barqarorligi	14	46	40
7.	Nostandart fikrlay olish	13	37	50
8.	Novatorlikka qiziqishning mavjudligi	8	32	60

O'quvchilarning kasbiy yo'nalganligining uch darajasi aniqlanganidan so'ng, mazkur darajalarga asoslangan holda, biz tomonimizdan tabaqlashtirilgan individual kasbiy sifatlarni rivojlantirish maxsus kurs dasturlari ishlab chiqildi va har bir pedagogika kollejining o'zida mashg'ulotlarning o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

Yuqori darajadagi kasbiy yo'nalganlikka ega o'quvchilarning kasbiy sifatlarni shakllantirish dasturi

2.1.2-jadval

№	Mavzularning nomlanishi	Nazariy	Amaliy	Mustaqil ta'lim
1.	Pedagogik tafakkur	4	6	8
2.	Pedagogik kompetentlik	4	6	8
3.	Pedagogik takt	4	6	8
4.	Pedagogik etika	4	6	8
5.	Pedagogik madaniyat	4	6	8
6.	O'z-o'zini rivojlantirish va o'z ustida ishlash	4	6	8
	Jami:	24	36	48

2.1.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, mazkur maxsus kurs dasturi yuqori darajadagi kasbiy yo'nalganlikka ega o'quvchilarni pedagogik faoliyatga yo'naltirish hamda ularning mavjud kasbiy sifatlarni fazilat va qobiliyatlar darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan. Ularni pedagogik tafakkurini kengaytirish, pedagogik takt va pedagogik etikaga oid bilimlarini rivojlantirish orqali kasbiy sifatlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish imkoniyati yaratiladi.

O'rta darajadagi kasbiy yo'nalganlikka ega o'quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish dasturi

2.1.3-jadval

№	Mavzularning nomlanishi	Ma'ruza	Amaliy	Mustaqil ta'lim
1.	Intelligentlik	2	6	6
2.	Aksiologik orientatsiya	2	6	6
3.	Eruditsiya	2	6	6
4.	Emotsional va irodaviy sifatlar	2	6	6
5.	Insonparvarlik	2	6	6
6.	Pedagogik texnika	2	6	6
7.	Pedagogik refleksiya	2	6	6
	Jami:	14	42	42

2.1.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'rta darajadagi kasbiy yo'nalganlikka ega o'quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish o'z faoliyatini samarali loyihalash ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mazkur kurs doirasida o'quvchi nafaqat kasbiy bilimlardan samarali foydalanish, balki o'z-o'zini takomillashtirib borish malakasini egallaydi.

Quyi darajadagi kasbiy yo'nalganlikka ega o'quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish dasturi

2.1.4-jadval

№	Mavzularning nomlanishi	Ma'ruza	Amaliy	Mustaqil ta'lim
1.	Ijtimoiy faollik	4		6
2.	Milliy g'oya targ'ibotchisi	4	4	6
3.	Ma'naviy-axloqiy yetuklik	4	4	6
4.	Mehnatsevarlik va ishchanlik	4	4	6
5.	Kasbiy burch	4	4	6
6.	Tolerantlik	4	4	6
7.	Kommunikativ qobiliyat	4	4	6
8.	Konstruktiv tashkilotchilik	4	8	6
9.	Kasbiy rivojlanishga qobiliyat-lilik	4	8	6
	Jami:	36	40	48

2.1.4-jadvaldan ma'lum bo'ladiki, quyi darajadagi kasbiy yo'nalganlikka ega o'quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish dasturi oddiy

kasbiy bilimlarni o'zlashtirish va ulardan foydalana olish malakasini egallashga yo'naltirilgan. Mazkur jarayonda eng asosiy e'tibor o'quvchilarning kasbiy zaruriy sifatlarni o'zlashtirishlari va amaliyotda qo'llay olish malakasiga ega bo'lishlariga qaratiladi.

Umuman olganda, tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari o'quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatadi. Eng muhimi, o'quvchida kasbiy faoliyatga qiziqish uyg'otish orqali bosqichma-bosqich, uzluksizlik asosida o'z faoliyatini innovatsiyalash imkoniyati hosil qilinadi.

2.2. Trening mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi

Trening – bu maqsadga yo'naltirilgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan qisqa muddatli o'qitish shakli. Ta'lim sohasidagi treningning o'ziga xosliklari quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi:

1. Maqsadga yo'nalganlik. Treningning asosiy maqsadi – qisqa muddatda uch-yigirma besh o'quvchidan iborat guruhni oliy ta'lim muassasasi sharoitiga moslashtirish maqsadida aniq ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

2. Trening o'tkazish vaqtining chegaralanganligi. Treningning o'tkazilishi uchun aniq muddat belgilanib olinishi va shu muddatda kutiladigan natijalarga erishilishi zarur.

3. Ishtirokchilar sonining cheklanganligi. Trening o'tkazish uchun eng qulayi 25 o'quvchidan oshmagan guruhdir.

4. Shakllantirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalar tavsifi. Mazkur o'ziga xoslik turlicha namoyon bo'lishi mumkin: formal moslashuvga o'rgatishdan, didaktik moslashuvga qadar¹³.

Treningning asosiy maqsadi:

– yangi bilim va ko'nikmalarni hamda ularni amaliyotda qo'llay olishni egallash orqali o'quvchilarning kasbiy layoqatini oshirish;

– ishtirokchilarda yangi bilim va ko'nikmalarni jadal tarzda o'zlashtirish istagini hosil qilish hamda ta'limning yangi shakl, metod va vositalarini idrok etishga tayyorlash;

– o'quvchi faoliyatida, ta'lim jarayonini tashkil etishga o'zgartirishlar kiritishni amalga oshirish va boshqalar.

Treningni muvaffaqiyatli o'tkazish uch quyidagi shart-sharoitlarga amal qilish lozim:

1) treningning maqsadi va vazifalari haqida aniq tasavvurlarni shakllantirish;

¹³ Голыш Л.В., Саидова Д.Т. Тренинг – форма оперативного повышения квалификации педагогических кадров. (в вопросах и ответах). – Т.: ПТЭУ, 2008. – С.10-11.

2) qisqa muddat ichida o'quvchilarni treningda ishtirok etishga o'rgatish;

3) treningning o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan muvofiqligini ta'minlash;

4) treningni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun interfaol metodlardan foydalanish.

Treningni tashkil etishda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

1. Trening o'tkaziladigan xona. Har bir ishtirokchi xonada o'zini erkin his etishi uchun lozim bo'lgan barcha sharoitlarning bo'lishi treningning samarasini ta'minlovchi omillardan biridir. Shuni hisobga olgan holda trening mashg'ulotlari o'tkaziladigan joy shinam, keng, erkin harakatlanishga mo'ljallangan, kerakli anjomlar bilan jihozlangan bo'lishi tavsiya etiladi. Xonaning bir chekkasida dumaloq shaklda qo'yilgan stullar, bir chekkasida yumshoq mebel o'rindiqlari, 2-3 dona stol, akvarium, devorda 1-2 dona manzarali gullar bo'lishi lozim. Bundan tashqari mashg'ulot jarayonida foydalanish uchun magnitofon, televizor, proektor, kompyuter jihozlari bo'lishi kerak. Xonada ishtirokchilarning orasiga to'siq bo'ladigan ortiqcha jihozlar bo'lmasligi tavsiya etiladi.

2. Trening o'tkazish jarayonida guruh a'zolari soni 8-10 o'quvchidan 20-25gacha bo'lishi ma'qul variant hisoblanadi. Agarda guruhda ishtirokchilar soni 25 kishidan ortib ketsa, dastur va mashqlar ishtirokchilarni bir necha guruhlarga bo'lgan holda o'tkaziladi.

3. Trening mashg'ulotlarining davomiyligi quyidagi bo'lishi maqsadga muvofiq:

1) haftasiga 4-5 kun, 8 soatdan (orada 1 soat, 30 daqiqa tanaffus beriladi). Bu eng samarali natija beradi;

2) haftasiga 2-3kun, har kuni 4-5 soat. Samarali natija beradi; haftasiga 1 kun, 3-4 soatdan. Kamroq samara berishi kutiladi.

Tajriba-sinov ishlari o'quvchilarning malakasini oshirish jarayonida qisqa va o'rtacha muddatli treninglardan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatdi. Ana shu sababli biz quyidagi mazkur treninglarning har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

1. Qisqa muddatli trening – bu tinglovchilarda biror mavzuga doir yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan jadal sur'atdagi faoliyatdir. Buning uchun eng avvalo, qisqa muddatli treningni loyihalab olish va amalga oshirish dasturini tuzib olish lozim (2.2.1-jadval).

«Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishga doir sifatlar» treningining texnologik modeli

2.2.1-jadval

Treningni o'tkazish joyi:	Toshkent viloyati pedagogika kolleji
Ishtirokchilar	2 kurs o'quvchilari
Treningni o'tkazish muddati	1 kun
Treningning maqsadi	Ishtirokchilarda muloqatchanlik, o'zaro hamkorlik, olibjanoblik, xushmuomalalik kabi sifatarni shakllantirish
Kutiladigan natija	O'quvchilarda o'zaro muloqotga kirisha olish ko'nikmasi hamda ularda kommunikativ va empatik sifatarni shakllantirishga erishiladi.

«Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirishga doir sifatlar» treningi dasturi

2.2.2-jadval

Vaqt	Mazmuni
14.00– 14.20	Treningning ochilishi. Ishtirokchilarni mashg'ulotga jalb etish.
14.30 – 15.30	Ishtirokchilarda o'zaro muloqotga kirisha olish ko'nikmasini shakllantirishga doir treninglar: «Xushmuomalalik», «Bir-biri uchun», «Hamma – ba'zilar – faqat men».
15.30– 15.40	Tanaffus
15.50– 17.00	O'quvchilarda o'z-o'zini namoyon etish, o'z-o'zini baholash va boshqalar bilan aks aloqaga kirisha olish sifatarni shakllantirishga doir treninglar: «Yordamchilar», «Qadr-qimmat tuyg'usi», «Proektiv rasm».
14.00. – 16.00	Trening natijalarini tahlil etish. Mustaqil ish topshiriqlarini bajarish. Treningni tugallash.

«Xushmuomalalik» treningi.

Treningning maqsadi: ishtirokchilarda o'zaro muloqotga kirisha olish ko'nikmasini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Vaziyatlar:

1. Siz ko'p vaqt bo'ladigan muhitda qanday muloqot (xulq-atvor) qoidalari qabul qilingan?

2. Bir-biringiz bilan qanday salomlashasiz, qanday minnatdorchilik bildirasiz?

3. Minnatdor ekaningizni qanday imo-ishoralar yordamida ifoda etasiz?

4. Noroziligingiz yoki e'tirozingizni qanday imo-ishoralar yordamida ifoda etasiz?

5. Nima uchun yoshlar doirasida «rahmat» va «marhamat», «minnatdorman» yoki «malol kelmasa» degan jumlar kam aytiladi?

Treningni borishi:

1. Trener ishtirokchilar amalga oshiradigan vazifalarni quyidagicha tushuntirib beradi: keling, mashg'ulotimiz davomida munosabatlarning «xushmuomalalik» deb atalmish yangi uslubini sinab ko'ramiz. Avvaliga, xushmuomalalikka doir qoidalar ro'yxatini ishlab chiqamiz. 5 daqiqa ichida har biringiz qoidalar jamiga kiritilishi kerak bo'lgan takliflaringizni tuzib chiqasiz. Keyin ularni muhokama qilib, oxirgi (yakuniy) ro'yxatni ovozga qo'yamiz.

Bu xushmuomalalik qoidalari guruhda amal qilishi uchun jarimalar tizimini joriy etamiz, uni ham o'zingiz ishlab chiqasiz. Sizga qoidalarni buzganlarga nisbatan qo'llanadigan muayyan jazolarni o'ylab qurish uchun yana 5 daqiqa beriladi.

2. Ishtirokchilar dastlab har birlari xushmuomalalik qoidalari va ularga amal qilinmaganda beriladigan jarimalar tizimini ishlab chiqishadi.

3. Ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda guruhlariga bo'linadilar va o'z qoidalari va jarimalar tizimini birgalikda muhokama qilishadi.

4. Muhokama tugaganidan so'ng, guruhlardan bir a'zo chiqib, o'zlari ishlab chiqqan xushmuomalalik qoidalari va ularga amal qilinmaganda beriladigan jarimalar tizimini taqdim etishadi.

5. Barcha guruhlarning taqdimotidan so'ng, guruhlar tomonidan shakllantirilgan qoida va jarimalar tizimi orasidan eng asosiylari belgilanib olinadi va jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

«Olijanoblik» treningi.

Treningning maqsadi: o'quvchilarda kursdoshlari va guruhdoshlariga nisbatan g'amxo'rlik va olijanoblik sifatlarini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Vaziyat: Ma'lumki, garchi bu, bir qarashda, aksi bo'lib ko'rinsa ham, boshqalarga berar ekan, kishi bundan-da ko'proq oladi. Boshqalar foydasiga qilingan har qanday tantilik xotirada anchagacha saqlanib qoladi. Shunga qaramay, har qanday odamda, olijanoblikka intilishlarni tutib taradigan, o'zi uchun yashash istagi bo'ladi. Keling, shu ikki ibtidoni solishtirib ko'ramiz.

Treningni borishi:

1. Trener dastlab ishtirokchilarning har biridan alohida o'z orzularini yozishlarini so'raydi.

2. So'ngra o'z orzulari yozilgan qog'ozni yonidagi o'rtog'i bilan almashishadi. O'rtog'ining orzulari bilan tanishish jarayonida o'quvchi quyidagi savollarga javob izlashi kerak: 1) do'stingizning orzusi amalga oshishi uchun qanday yordam bergan bo'ladingiz? 2) do'stingizning orzularini amalga oshishi uchun nimalardan voz kecha olasiz? 3) do'stingizning orzularini amalga oshishi uchun qanday maslahatlar bera olasiz?

3. O'quvchilar so'ngra o'z orzularini guruhda muhokama qilishadi. Ulardan har biri o'z orzulari bilan do'stlarining orzulari o'zaro taqqoslanib, o'xshashliklar aniqlangan diagrammani tuzishadi. So'ngra guruhlar navbati bilan o'z orzularini va ularni amalga oshirish maslahatlarini taqdimot qilishadi.

«Yordamchilar» treningi.

Treningni maqsadi: o'quvchilarda o'zaro yordamga tayyor turish, do'stlik va mardlik fazilatlarini tarbiyalash.

Vaziyat: Keling, so'nggi marotaba kimga va nima uchun yordam berganimiz haqida bir-birimizga aytib beramiz. U Kim edi? Eng yaqin qarindoshingizmi, yaqin do'stingizmi, balki u mutlaqo notanish kishidir?.. Xo'sh, u kishini esladingizmi? Endi qanday sharoitda ro'y berganini eslang. U kishi o'zi yordam so'radimi yo bu sizning tashabbusingizmidi?

Kim boshqalarga ko'rsatgan beg'araz yordami haqida gapirib berishga tayyor?

Hikoya davomida boshqa qatnashchilar so'zlovchining gapirish uslubi, imo-ishoralari, tanaffuslariga va shu kabilarga e'tibor qilib tinglashlari kerak.

«Bir-biri uchun» treningi.

Treningni maqsadi: o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yuzaga keltirish, emotsional yaqinlikni hosil qilish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Vaziyat: Insonlar bir-biri uchun yaralgan. Bugun bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Agar kimningdir xohishi bo'lsa, bu fikrni muhokama qilishimiz mumkin.

Bu etyudning asosiy vazifasi guruhning har bir a'zosi Sizga qayerda va nima naf keltirishi mumkinligi haqida o'ylab ko'rishdan iborat. Masalan, Siz «Mansur» ismini yozdingiz va qarshisida «U bilan biznes boshlasa, sayohatga chiqsa va futbol haqida gaplashsa bo'ladi», deb yozdingiz. «Sevara» ismi qarshisida esa «U bilan oila qursa, farzandlarni tarbiyalasa, teatr va she'riyat, albatta, taom tayyorlash sirlari haqida gaplashsa bo'ladi», deb yozdingiz. Shu tariqa, Siz guruhning barcha a'zolari ro'yxatini tahlil qilib chiqishingiz kerak. Keyin katta davraga birlashib, bir-birimizni eshitib ko'ramiz. O'ylaymizki, «Men nimaga yararkanman?» degan savolga javob topish hammaga qiziq bo'ladi.

«Hamma – ba’zilar – faqat men» treningi.

Hamma keng doira shaklida qo’yilgan stullarga o’tiradi. O’yin ishtirokchilari soni qancha bo’lcha, doirada shuncha stul bo’lishi kerak. Trener (murabbiy) o’rtada turadi (stulsiz).

– Hozir men ba’zi o’quvchilar haqida nimadir aytaman. Aytganlarim taalluqli bo’lganlar darrov o’rnidan turadi va bo’sh qolgan stullardan birini egallashlari kerak bo’ladi. Aytganim o’zimga tegishli bo’lsa, men ham kimningdir stulini egallashim mumkin. Stulsiz qolgan o’quvchi esa boshlovchi bo’ladi. Bo’sh turgan stulga o’tirib olish taqiqlanadi. Qani, sinab ko’ramiz.

«Bugun yaxshi kayfiyatda uyg’onganlar...»

«Bugun o’qishga kelganlar...»

«Sochiga tilla rang tasma bog’laganlar» (Faqat birgina qizga tegishli belgi tanlanadi. U o’rnidan turganida, boshlovchi uning o’rnini egallashga harakat qiladi).

O’yinga birinchi urinishdan keyin boshlovchi «kartalarni ochib tashlaydi»:

– Men uchta savol berdim. Birinchi holda **ayrimlar** javob qildi, boshqalar esa «Bu menga tegishli emas»,- deyishdi. Ikkinchi holda **hamma** javob qildi. Uchinchi holda **faqat bir kishi**. Bu o’yin shunday nomlanadi «Hamma – ba’zilar – faqat men».

O’yin shu tarzda davom etadi. Bu o’yin yordamida o’quvchilar bir-birlari haqida yangi ma’lumotlarni bilib olishga muvaffaq bo’ladilar.

«Qadr-qimmat tuyg’usi» treningi.

Treningni maqsadi: o’quvchilarda o’z-o’zini namoyon etish, o’z-o’zini baholash va boshqalar bilan aks aloqaga kirisha olish ko’nikmalarini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog’ozlari, markerlar.

Treningni borishi:

1. Dastlab barcha o’quvchilar bir varaq qog’ozga o’zining alohida jihatlari ro’yxatini tuzishadi.

2. So’ng trener ularning biridan o’zining alohida jihatlari ro’yxatini o’qib berishni so’raydi.

3. O’quvchi o’z ro’yxatida yozilganlarini o’qib bo’lgach, trener boshqa o’quvchilar orasidan mazkur o’quvchi haqida fikr bildirishlarini so’raydi, ya’ni aks aloqa vaziyati vujudga keltiriladi.

O’quvchilar aks aloqa jarayonida quyidagilarga rioya qilishlari shart:

1) aks aloqani Sizdan biror o’quvchi haqida so’rashganlaridagina bering;

2) fikr va tuyg’ularingiz haqida gapirayotib, ularni keltirib chiqargan aniq so’z va xatti-harakatlarni tilga olib o’ting;

3) boshqani xafa yoki haqorat qiladigan tarzda gapirmang;

4) baho bermang;

5) maslahat bermang: «Sening o‘ringda bo‘lsam,...», «Sen ... qilishing kerak» kabi jumalarni ishlatmang.

4. Mazkur vaziyat so‘nggi ishtirokchi o‘z ro‘yxatida yozilganlarini o‘qib berib, unga aks aloqa ko‘rsatilguniga qadar davom etadi.

«Proektiv rasm» treningi. Hammadan ikkita rasm ishlash so‘raladi: «men qandayman» va «men qanday bo‘lishni istayman». Rasm ishlashga besh daqiqa ajratiladi. Rasmlar imzolanmaydi. Rasmning texnik jihatlari muhim emas. Hamma rasmlar xona o‘rtasida yoyiladi. Keyin bittasi tanlab olinadi. Hammaga ko‘rinadigan qilib qo‘yiladi. Keyin hamma navbat bilan nimani ko‘rayotganini aytadi. U yerda nima chizilgani va nimani his qilganini, rasm ishlagan kishi, uningcha, o‘zini qanday ko‘rayotgani va qanday ko‘rishni istayotgani (nimani o‘zgartirmoqchi ekani) haqida gapiradi. Hamma navbat bilan gapiradi. Bunda muallif o‘zini tanishtirmaydi. Hamma xohlovchilar gapirib bo‘lgach, rasm muallifini topishga urinib ko‘rish mumkin. Keyin muallif o‘zini tanitib, rasmda nimani ifoda etmoqchi bo‘lganini tushuntiradi, o‘ziga yoqqan replikalarga javob qaytaradi. Muhokama chog‘ida kimning talqini mualliflarga ko‘proq yoqqanini aytib o‘tiladi.

2. O‘rtacha muddatli treninglar 5-6 kunga mo‘ljallangan bo‘lib, murakkab tarkibiy qismlardan iborat kasbiy sifatlarni shakllantirish maqsadida o‘quvchilar bilan olib boriladigan faoliyatdir .

«Ijtimoiy me‘yorlarga muvofiq xulq-atvorni shakllantirishga doir sifatlarni» treningining texnologik modeli

2.1.3-jadval

Treningni o‘tkazish joyi:	Toshkent viloyat pedagogika kolleji
Ishtirokchilar	2 kurs o‘quvchilari
Treningni o‘tkazish muddati	3 kun
Treningning maqsadi	Ishtirokchilarda kognitiv (tarbiyalanuvchi haqidagi ma‘lumotlar doirasini kengaytirish, mazkur ma‘lumotlarning ahamiyatini anglash), emotsional (tarbiyalanuvchiga qiziqish bilan qarash, u bilan o‘zaro birgalikda harakatlanishga intilish va bundan zavq ola bilish) va amaliy (o‘quvchining tarbiyalanuvchiga ta‘sir ko‘rsatishga doir o‘zining real imkoniyatlarining anglab yetilganligi) sifatlarni shakllantirish.
Kutiladigan natija	O‘quvchilarda insonparvarlik, ijtimoiy faollik, tolerantlik, emotsional va irodaviy sifatlarni va pedagogik muomalalar odobi tarkib toptiriladi.

**«Ijtimoiy me'yorlarga muvofiq xulq-atvorni shakllantirishga doir
sifatlar» treningi dasturi**

2.1.4-jadval

Birinchi kun

Vaqt	Mazmuni
14.00– 14.20	Treningni ochilishi. Ishtirokchilarni mashg'ulotga jalb etish
14.20. – 15.30	Xulq-atvor ko'nikmalari bilan tanishtirishga doir treninglar: «Tarbiyali bo'lish nima degani», «Men qanday odamman?»
15.30– 15.40	Tanaffus
15.40– 16.40	Xulq-atvor ko'nikmalarini amaliy faoliyatda qo'llashga doir treninglar: «Do'stlarim va tanishlarimning muvafaqqiyatlari va hayotidagi quvonchli voqealar», «Mas'uliyat hissi».
16.40– 17.00	Trening natijalarini umumlashtirish va yakunlash

1-trening mashg'uloti. Tarbiyali bo'lish nima degani?

Treningni maqsadi: o'quvchilar o'rtasida muloqotning maqbul muhitini yaratish; ularni boshqa kishilarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish.

«Fikriy hujum» uchun savollar:

1. Qanday xulq-atvor me'yorlarini bilasiz (sanab beriladi, ustuncha shaklida yoziladi)?

2. Qaysilarini bilmaysiz, ammo bilishni istaysiz?

3. Bu qoidalarni bilish osonmi?

4. Ularga rioya qilish nima degani:

– rasman, avtomatik bajarish;

– hamma vaqt bir xilda, vaziyatga bog'liq bo'lmagan holda bajarish;

– nima uchun shunday qilish kerakligini tushunish;

– ularni bajarganda qandaydir hislarni tuyish (misol keltiring);

– o'ylash, nimanidir tushunish, bilish (?) – aynan nimani, Sizningcha?

5. Nima uchun tarbiyali bo'lish kerak? Xulq-atvor qoidalari nima uchun mavjud?

Treningni borishi:

1. Dastlab savollarga o'quvchilar individual javob yozishadi.

2. So'ngra guruhlarga birlashib, o'z javoblarini birgalikda muhokama qilishadi.

3. So'ng guruhlarning javoblari umumlashtirib, xulq-atvor qoidalari tizimi shakllantiriladi.

Bu savollar o'quvchini tarbiya ko'rganlik odob qoidalarini rasman bajarish emas, balki:

– kishilar o'rtasida yashashning va muloqotning maqbul muhitini yaratish;

– boshqa kishilarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish vositasi;

– o'zida ma'lum xarakter qirralarini rivojlantirish ekanini tushunishga olib keladi.

2-trening mashg'uloti. «Men qanday odamman?»

Boshlovchi: kishi ko'pincha, boshqalarga savol berishni yaxshi ko'radi. Bu savollar turli xil narsalar haqida bo'lishi mumkin, biroq kishining aynan o'zi haqida emas. Biz Siz bilan esa bugungi mashg'ulotda «Men qanday odamman» degan savolga javob beramiz.

Bir yozilmagan varaq oling va quyidagi savollarga javob bering:

1. Mening asosiy yutuq va kamchiliklarim nimadan iborat?

2. Oilam – ota-onam, aka-ukalarim va opa-singillarim, yaqinlarim menga qanday ta'sir ko'rsatishadi?

Javoblaringiz imkon qadar ochiqchasiga berilishi kerak, zero, ularni Sizdan boshqa hech kim ko'rmaydi. Ruxsatingiz bilan men ularni ko'rib chiqaman. Mana shu tarzda o'ndan ortiq javob to'planadi. Bu javoblar o'zingizni yaxshiroq bilib olishga Sizga yordam beradi.

Avvalgi mashg'ulotda aniqladikki, o'zini jamiyatda to'g'ri tutishga o'rganish uchun nafaqat odob qoidalarini o'zlashtirish, balki o'zida xarakterning ma'lum qirralarini shakllantirishga intilish kerak. O'z ustida ishlash, odatlari va xarakteri haqida o'ylab ko'rish kerak. Har birimizga chindan-da, tarbiyali va madaniyatli kishi bo'lishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan xarakter qirralarini aniqlashga urinib ko'ramiz.

O'zingizni quyidagi vaziyatlarda sinab ko'ra olasizmi?:

Ko'chada uchrab qolgan keksa odamga mayin tabassum bilan xaridini olib borishga yordam berasiz, saldan keyin esa notanish ikki ayolni turtib o'tib, navbatsiz bilek olishga urinasiz?

Agar nunday qilsangiz, sira shubhalanmang: sizda ko'r-ko'ronalik (xo'jako'rsinga ish qilish) bor, Siz bu siz uchun foydali bo'lgan vaziyatlarda o'zingizni madaniyatli qilib ko'rsatasiz, xolos.

Aslida, chinakam muloyimlik bayramona libos emas, kundalik kiyimbosh, u haftaning har kunida orasta va chiroyli bo'lishi kerak.

Xulq-atvor madaniyati – madaniyatli kishi rolini o'ynashni istagan havaskor aktyor uchun ssenariy emas. U hayotni oxiri yo'q maskarad (faqat kiyimlaringni almashtirib ulgursang bo'lgani) deb tushunadiganlar uchun ham to'g'ri kelmaydi. Kishilar ko'z o'ngida ular olijanob va tarbiyali bo'lib ko'rinishga urinadi, ularni hech kim ko'rmaydigan va to'xtatmaydigan joylarda esa, quyunday shoshiladi, baqiradi, eshikni qarsillatib yopadi va sh.k.

Bu yerda qanday xarakter qirralari namoyon bo'ladi?

Uyga (o'quvchilar turar joyiga) qaytgach, kiyimlarni almashtirmasdan, muzlatkichdan yoki stoldan birinchi duch kelgan yegulikni olasiz, kosaga suzmasdan, qozonning o'zidan yeyishni boshlaysiz. To'ygach, og'zingizni yengingizga artasiz va mamnun bo'lib stulda yo divanga yonboshlaysiz.

Nima deb o'ylaysiz, mehmonda o'zingizni qanday his qilasiz va tutasiz?

Ehtimol, bunday:

Pichoq va sanchqilar qo'lingizdan «sakrab», polga tushadi; qo'llaringiz og'izni yengga artish uchun avtomatik tarzda bukiladi.

Biroq... agar har kuni uyda tartib bilan, pichoq va sanchqidan to'g'ri foydalanilsa, bu hamma vaqt qulay va oson bo'lardi.

Xulosa:

Yaxshi xulq doimiy mashqni talab qiladi.

To'xtash, tanaffus qilish mumkin emas.

O'zingizni uyda va ko'chada turlicha tutadigan bo'lsangiz, hech qachon yaxshi xulq egasi bo'la olmaysiz.

Nima deb o'ylaysiz, uyda, o'qishda, ko'chada, mehmonda, transportda va boshqa joylarda o'zini birdek tarbiyali tutishga qaysi usullar bilan o'rgatish mumkin?

3-trening mashg'uloti. Do'stlarim va tanishlarimning muvaffaqiyatlari va hayotidagi quvonchli voqealar

Dastlab guruhda kichik guruhlar hosil qilinadi. Ular o'z guruhlarida quyidagi jadvalni to'ldirishadi:

Mening hayotimdagi quvonchli voqealar	Do'stlarimning va tanishlarimning muvaffaqiyatlari

Keyin bir necha ishtirokchi quyidagi savollarga javob beradi:

1. Do'stlaringizning yutug'iga qanday munosabat bildirasiz?

2. Do'stlaringizning yutuqlari Siznikidan yaxshiroq bo'lsa, bunga qanday munosabatda bo'lasiz?

Endi diqqat!

O'zingizga javob bering.

Sizda shunday bo'lganmi?

1. Do'stingiz (matematika, biologiya, ona tili bo'yicha) olimpiadada sovrinli o'rinni egalladi. Uni tabriklash kerakligini bilasiz, biroq bunga o'zingizda kuch topa olmaysiz. Uning o'rnida bo'lishni istaganingiz, u Sizdan o'zib ketgani uchun o'zingizni yomon his qilasiz.

2. Do'stingizga (dugonangizga) yangi uyali telefon sovg'a qilishdi (yoki u sotib oldi). U baxtiyor va Siz bilan quvonchini bo'lishmoqchi.

O'zingizni qanday tutishingiz kerak? Ehtimol, xayrixoh insonga xos tarzda unga nimadir iliqlik so'z aytish, buyumni maqtash kerakdir. Nima uchun buning o'rniga biz:

– o'zimizni befarqlik ko'rsatamiz yoki hatto u tomonga qaramaslikka urinamiz;

– jahli va mensimaslik bilan «qoyil qoladigan joyi yo'q. Eskirgan model» yoki «Almisohdan qolgan-ku! Qayerdan olding» deymiz.

Bunday xatti-harakat va so'zlar kishining qaysi sifatlaridan dalolat beradi, nima deb o'ylaysiz?

Bu o'rinda kishi xarakterining yana bir xususiyatiga duch keldikki, uni bostirishga harakat qilinmasa, u o'zimizni munosib va tarbiyali tutishimizga sira yo'l qo'ymaydi.

Bu – hasad!

4-trening mashg'uloti. «Mas'uliyat hissi»

«Fikriy hujum» uchun savollar:

1. Mas'uliyat nima?

2. Mas'uliyatni qanday tushunasiz?

3. Qanday majburiyatlarga egasiz?:

– uyda, oilada, yotoqda;

– o'qishda;

– do'stlaringiz bilan munosabatlarda;

– yana kimlar bilan?

4. Ularni qay tarzda va hamma vaqt ham bajarasizmi?

5. Siz intizomli (majburiyatini his qiladigan) kishimisiz? Birovlarning sirini saqlay olasizmi? Va'dalaringizni bajarasizmi? So'zingizning ustidan chiqasizmi?

6. O'quv topshiriqlarini vaqtida bajarasizmi?

7. Shoshilinch ishlarni «keyinga» qoldirish odatingiz yo'qmi?

8. Sizga ishonib aytilgan birovning sirini boshqalarga aytib bergan vaqtingiz bo'lganmi?

Bularning bari: majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, so'ziga sodiq bo'lish, boshqalarning ishiga aralashmaslik, mas'uliyatlilik, kamtarlikdan dalolat beradi.

O'zingizda tasavvur qilib ko'ring.

Har birimizning shunday tanishimiz borki, uning fikrini qadrlaymiz. Unda yaxshi taassurot qoldirishga intilamiz. U haqida o'ylaymiz, u bilan ko'proq birga bo'lishni istaymiz. Endi tasavvur qiling, bu kishi hamma vaqt sizga yaqin bo'ladi va Sizni kuzatadi. Bu Sizni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yuboradi. Endi Siz kattalar bilan munosabatda qo'pollikka yo'l qo'ymaysiz yoki do'stingiz bilan urishmaysiz. Bu kishining nigohi ostida

o'qishdan kela solib, paypoqni duch kelgan burchakka uloqtirish, stol ustida gazeta yozib tamaddi qilishsh, do'stingiga qo'pol so'z aytilish xayolingizga ham kelmaydi. Shu tariqa tasavvur Sizga o'zingizni uyda (o'quvchilar turar joyida) odob doirasida tutish, normal ovqatlanish va atrofdagilar bilan xushmuomala bo'lishda yordam beradi. Ma'lum vaqtdan keyin (o'zingiz ham bunga ishonch hosil qilasiz) yuvilmagan qo'lingizda singib pishgan non u qadar shirin tuyulmaydi. O'rtoqlaringizning tarbiyasizligi g'ashingizga tegadi, tartibsizlikdan jahlingiz chiqadi. Yana ma'lum vaqt o'tgach esa, Siz yaxshi odatlarga ko'nirik qolganingiz va bu ichki ehtiyojga aylanganini his qilasiz.

Ikkinchi kun

Vaqti	Mazmuni
14.00– 14.20	Ishtirokchilarni mashg'ulotga jalb etish
14.20. – 15.30	Xulq-atvor odatlarini tarkib toptirishga doir treninglar: «Men hech qachon ...maganman», «Mumkin emas», «Qadriyatlar» o'yini.
15.30– 15.40	Tanaffus
15.40– 16.00	Trening natijalarini umumlashtirish va yakunlash

«Men hech qachon ...maganman» o'yini.

O'yinning maqsadi: ishtirokchilarda o'zi haqida o'ylash, o'z yutuqlarini ko'ra olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Ishtirokchilar navbatma-navbat «Men hech qachon ...maganman» degan jumladan iborat gap aytishlari lozim (masalan, «Men hech qachon sigaret chekmaganman», «Men hech qachon o'zimdanda kattalarga tik qarab gapirmaganman», «Men hech qachon haqoratli so'zlarni ishlatmaganman», «Men hech qachon qizlar (yigitlar) bilan jamoat joylarida qo'ltiqdashib yurmaganman» va h.k.). Qolgan ishtirokchilar esa, aytilayotgan gaplar, agar ular uchun noto'g'ri bo'lsa barmoqlarini bukib boradilar. Ya'ni masalan, biror ishtirokchi sigaret cheksa, bitta barmog'ini bukadi, keyingi ishtirokchi tomonidan aytilgan gap ham uning uchun noto'g'ri bo'lsa (ya'ni u qizlar (yigitlar) bilan jamoat joylarida qo'ltiqdashib yursa) yana bitta barmog'ini bukadi va h.k. Jami o'nta gap aytilganidan so'ng kimningdir barmoqlaridan birortasi yoki bir nechtasi bukilmasdan qolgan bo'lsa, o'sha yutadi. Boshlovchi ishtirokchilarni oldindan aytilayotgan gaplar hayotiy bo'lishi lozimligi va barmoqlarni adolatli bo'kish lozimligi haqida ogohlantirishi kerak. O'yin shu tarzda barcha ishtirokchilar bittadan gap aytgunlariga qadar davom ettiriladi.

«Qadriyatlar» o'yini.

O'yinning maqsadi: shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasi tuzilishi va muhimligining ahamiyatlilik darajasini his qilish va anglash.

O'yinni o'tkazish shart-sharoitlari: mashq tinchlantiruvchi, bir mardagi musiqa sadolari ostida bajarilishi zarur. Bunda matn o'qiyotgan boshlovchi ovozing qanday ohangda ekanligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinning borishi:

Ishtirokchilarga oltita varaq tarqatilib, mana shu qog'ozlarga o'z hayotlaridagi eng qadrlil narsalarni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra yozib chiqishlari so'raladi. Keyin varaqlar shunday aralashtiriladiki, eng qadrlil narsa yozilgan varaq oxirida turishi kerak. Boshlovchi ishtirokchilarga qandaydir hodisa ro'y berib, birinchi varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo'lganliklarini his qilib ko'rishlarini taklif etadi. So'ngra boshlovchi ishtirokchilardan shu qadriyat yozilgan qog'ozni g'ijimlab uloqtirishni va hayotni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko'rishlarini so'raydi.

Shu tariqa har bir qadriyatdan voz kechib boriladi. Shundan so'ng ishtirokchilarga qadriyatdan ajaralayotgan vaqtda qanaqa hissiyot, qanaqa tuyg'uni his qilganligini eslash taklif etiladi. Keyin boshlovchi mo'jiza ro'y berib, qadriyatlarni birma-bir qaytarish imkoniyati tug'ilganligini e'lon qiladi va g'ijimlangan qog'ozlarni birma-bir qaytarib oladi. So'ng ishtirokchilardan qadriyatlarni yo'qotilgan vaqtdagi holati va g'ijimlangan qog'ozlarga yozilgan holatini solishtirib, yo'qotilgan paytdagi qadriyatlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo'qmi ekanligini so'raydi. Agar guruh a'zolari qadriyatlarni ahamiyatiga ko'ra o'rinlarini almashtirgan bo'lsa, buni ham bayon qilishlari kerak. Mashg'ulot so'nggida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalarni bayon etadi.

Diqqat! Mashg'ulot jarayonida ishtirokchilar kuchli ruhiy kechinmalarni, zo'riqishlarni his qilishlari mumkin. Shuning uchun mashg'ulot ortiqcha shovqin-suronsiz o'tishiga, ortiqcha ovozlarni bo'lmasligiga, ishtirokchilarning bir-biriga xalaqit bermasligiga va begona odamlarni xonaga kirmasligiga e'tibor berish lozim. Shu bilan birga boshlovchi ham ishtirokchilarga diqqat-e'tiborli bo'lishi lozim.

«Mumkin emas...» o'yini.

O'yinning maqsadi: ishtirokchilarda hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni yechish yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

O'yinning borishi: guruh ikkiga bo'linadi. Birinchi guruh o'z xohish-istaklarini bayon qiladi, ikkinchi guruh esa bunga rad javobini berishi kerak. O'n daqiqadan keyin guruhlar o'z o'rinlarini almashadilar. O'yin taxminan quyidagicha boshlanishi mumkin:

– Men bugun kechqurun diskotekaga bormoqchi edim.

– Yo‘q, mumkin emas, kech bo‘lib qoladi. Yotoqxonaga soat to‘qqizdan keyin kiritilmaydi.

– Men istalgan narsamni istalgan vaqtda sotib olishim mumkin.

– Yo‘q, bunday qila olmaysan. Chunki endi o‘zing uchun zarur barcha narsalarni o‘z hisobingizdan sotib olishing kerak.

O‘yindan so‘ng xohishlarni rad qilish uchun qo‘llanilgan dalillar, ularning sabablari va mazmuni tahlil qilib chiqiladi. Boshlovchi quyidagicha xulosa qilsa bo‘ladi: «Asosli va asossiz rad etishlar bor. Ko‘pincha sizga ba‘zi taqiqlar asossizday tuyulishi mumkin, biroq ularda ham maqsad, mazmun borligini inkon eta olmaymiz. Agar biz istagimiz nega rad etilayotganligini anglasak, tushunsak, bunga ko‘nikishimiz osonroq bo‘ladi. Ba‘zan o‘zimiz qilayotgan xatti-harakatlarimiz, istagimiz noo‘rin ekanligini ham anglab turariz. Bunday holda tushunishimiz qiyin bo‘lgan kechinmalarni his qilamiz».

Uchinchi kun

Vaqti	Mazmuni
14.00– 14.20	Ishtirokchilarni mashg‘ulotga jalb etish
14.20. – 15.30	Axloqiy-psixologik sifatlarni tarkib toptirishga doir treninglar: «Biz turfa xilmiz», «Ezgu fazilatlar», «Tanish vaziyat»
15.30– 15.40	Tanaffus
15.40– 16.00	Trening natijalarini umumlashtirish va yakunlash

Dastlabki mashqimiz o‘quvchilarning har bir tarbiyalanuvchining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, individual yondashuv haqidagi fikrlarini bilishga qaratildi. Ushbu mashq «Biz turfa xilmiz» deb nomlandi. Eng avvalo, o‘quvchilar o‘n kishidan guruhlariga bo‘linishdi. Har bir guruh (ular ikki guruhni tashkil etishdi) o‘zining doirasini hosil qildi. Boshlovchining signalidan so‘ng ikkala doira qarama-qarshi tomondagi guruh bilan aralashishdi. «To‘xtang» buyrug‘i berilgandan so‘ng ishtirokchilar turgan joylarida to‘xtashdi va ulardan tezda qarama-qarshi tomonlarida turgan komandaning o‘nta farqli jihatlarini sanab berish so‘raldi.

Ikkinchi mashq pedagogik amaliyot jarayonida o‘tkazilib, «Ezgu fazilatlar» deb nomlanadi. Barcha tarbiyalanuvchilar o‘n kishidan guruhlariga bo‘lindilar va ikki qatorni hosil qilishdi. Har bir o‘quvchidan unga qarab turgan jamoa a‘zolarining beshta sifatini aytish so‘raldi. Bu mashq o‘quvchilarga har bir tarbiyalanuvchida qandaydir yaxshi sifatlar mavjudligi, faqatgina uni ko‘ra olish va to‘g‘ri baholay olish lozimligini anglashga imkon beradi.

«Tanish vaziyat» deb nomlangan uchinchi mashq fikrlashning ijobiy usulini shakllantirishga imkon beradi. O'quvchilarga «Siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz, agar tarbiyaviy jarayonda ...» jumlasini bilan boshlanuvchi ettita savol taqdim etildi.

1. Shanbalik vaqtida tarbiyalanuvchilardan biri norozi ohangda dedi: «Men engashib supurmayman, kechagi hashardan so'ng egilsam belim og'riyapti».

2. Tarbiyalanuvchilardan biri tadbirga tayyorgarlik ko'rayotganda, dekoratsiyani turtib yubordi va u sochilib ketdi. O'rtog'lari unga qattiq baqirishib ketishdi va uni turtkiliy boshlashdi.

3. Sizning ko'rsatnangizga binoan barcha tarbiyalanuvchilar badiiy kitoblarni o'qiy boshlashdi. Ulardan biri «Menga shu kitob o'qish kerakmi... Men futbolist bo'lmoqchiman», dedi.

4. Sizning guruhingizdagi tarbiyalanuvchilaringiz bilan ijtimoiy himoya markazi xodimlari kelib suhbat o'tkazishdi. Faqat bittasidan tashqari hammasi suhbat jarayonida o'zlarini erkin fikrlarini bildira olishdi va tarbiyalanuvchilar shu qizga ta'na-dashnom yog'dira boshladilar. Aslida, bu qiz doimo hech kimga qo'shilmasdan bir o'zi yurardi.

5. Sizning qarshingizda bir necha marotaba tarbiyaviy soatga kirmagan o'n besh yoshli tarbiyalanuvchi turibdi.

6. Tarbiyalanuvchilaringizdan biri (koreys millatiga mansub) andijon polkasiga raqs tushish vaqtida tizzasini bukib, yerga o'tirishga harakat qildi, lekin eplay olmadi. «Qiziq shuni ham qila olmaysanmi, mana bunday qil...» – siz unga tushuntirishingizdan burun o'rtaga shunday gap tashlandi.

7. Futbol o'yini vaqtida to'p aslida sizning guruhingiz tarbiyalanuvchilarida edi, biroq to'satdan boshqa guruh vakili oyog'iga o'tdida, natija gol bilan tugadi.

Xulosa qilib aytganda, trening mashg'ulotlari o'quvchilarda kasbiy sifatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib, mazkur jarayonning taqaballashtirilgan, tizimli, izchil va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

XULOSA

O'qituvchilik faoliyati «Inson-inson» kasb guruhiga kiradi. Pedagog professiogrammasiga e'tibor qaratilganda, biz mutaxassis yuksak axloqli, kuchli irodaga egalik, aniq maqsadga egalik, odamlarni tushuna olishi, e'tiborli bo'lishi, tasodifiy vaziyatlarga tez yo'nalgan bo'lishi, hissiy javobgarlikka ega bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Pedagogning kasbiy zaruriy sifatlari: mehnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, maqsadni aniq belgilay olish, unga erishish yo'llarini tanlay olish, tashkilotchilik, qat'iyatlilik, adolatlilik, mahorat, pedagogik takt, talabchanlik, ilg'or pedagogik texnologiyalarni egallash, o'z mehnati samaradorligini muntazam oshirib borish va boshqalar.

Pedagogning shaxsiy sifatlari: insoniylik, samimiylik, mehribonlik, sabr-chidamlilik, tartiblilik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, javobgarlik, burchga sadoqat, insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, iltifotlilik, qalban g'amxo'rlik ko'rsatish va boshqalar.

O'qituvchining pedagogik qobiliyati tizimida kasbiy bilimlar asosida shakllanadigan qoida va tamoyillarning anglanishi muhim ahamiyati ega. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, o'qituvchining kasbiy bilimlari darajasini quyidagi tarzda turkumlash mumkin: 1) metodologik – umumfalsafiy doirada rivojlanish qonuniyatlariga doir bilimlar, tarbiya maqsadining shartlanganligi va boshqalar; 2) nazariy – pedagogika va psixologiyaning qonunlari, tamoyillari va qoidalari hamda faoliyatning asosiy shakllari; 3) metodik – o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish darajasi; 4) texnologik – aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etish darajasi; 5) kasbiy fikrlash – pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish va umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish qobiliyati; tanqidiy fikrlash – biror bir harakatga doir qaror qabul qilishda ratsional, refleksiv fikrlash; aqlning tanqidiyligi – bu insonning o'zining va boshqa fikrlarni obyektiv baholay olish, ilgari surilayotgan fikr va g'oyalarni har tomonlama va chuqur tahlil etish ko'nikmasi; ijtimoiy yetuklik – jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyat, me'yori, ustanovka, xulq-atvor namunalarini egallaganlikning yuqori darajasi; faoliyat strategiyasi – istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish mahorati; kasbiy salohiyati – belgilangan darajada o'zining majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini aniqlab beruvchi tabiiy va o'zlashtirilgan sifatlarni yig'indisi.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'limning boshqa bosqichlari singari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida ham tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o'qitishdan keng foydalanilmoqda. Agar mazkur yondashuvni o'quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayoniga tatbiq etadigan bo'lsak, ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: o'quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayonini tabaqalashtirish uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o'qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratishdir.

Tabaqalashtirish ta'limning xilma-xil maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilish bilan birga, o'quvchilarning kasbiy shakllanishiga ham imkon berishi kerak. Shuningdek, mazkur jarayonda har bir o'quvchiga tanlash imkoniyatining berilishi, ularning innovatsion faoliyat subyekti sifatida faoliyat yuritishi uchun asos bo'lib, o'z kasbiy sifatlarini shakllantirishni o'zi boshqara olishiga imkon beradi.

O'quvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvning qo'llanilishi ularning xohish-istaklari, qiziqishlari, psixofiziologik xususiyatlari (yosh, bilish imkoniyatlari), pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olinishini taqozo etadi. Ana shu tarzda o'quvchilarning xususiy va umumiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, xilma-xil o'quv dasturlari asosida ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Trening – bu maqsadga yo'naltirilgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan qisqa muddatli o'qitish shakli. Ta'lim sohasidagi treningning o'ziga xosliklari quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi: 1. Maqsadga yo'nalganlik. Treningning asosiy maqsadi – qisqa muddatda uch-yigirma besh o'quvchidan iborat guruhni oliy ta'lim muassasasi sharoitiga moslashtirish maqsadida aniq ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish. 2. Trening o'tkazish vaqtining chegaralanganligi. Treningning o'tkazilishi uchun aniq muddat belgilanib olinishi va shu muddatda kutiladigan natijalarga erishilishi zarur. 3. Ishtirokchilar sonining cheklanganligi. Trening o'tkazish uchun eng qulayi 25 o'quvchidan oshmagan guruhdir. 4. Shakllantirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalar tavsifi. Mazkur o'ziga xoslik turlicha namoyon bo'lishi mumkin: formal moslashuvga o'rgatishdan, didaktik moslashuvga qadar.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, pedagogika kolleji o'qituvchilari uchun quyidagi metodik tavsiyalarni ishlab chiqildi:

1) pedagogika kolleji o'quvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirishga doir tabaqalashtirilgan maxsus kurs dasturlarini ishlab chiqishni me'yoriy hujjatlarda aks ettirish;

2) «Kasbiy bilimdon», «Kasbim – faxrim» kabi tanlovlarni tashkil etish orqali pedagogika kolleji o'quvchilarida kasbiy fazilatlarini o'zlashtirishga doir qiziqish va ehtiyojlarni hosil qilish;

3) pedagogika kolleji o'quvchilarida kasbiy fazilatlarni shakllantirish jarayoniga tizimli, akmeologik va aksiologik yondashuvlarni tatbiq etish;

4) pedagogika kollejlarda gomogen guruhlar asosida tabaqalashtirilgan maxsus kurslarni tashkil etish;

5) maxsus tayyorgarlikka ega tyutor va fasilitatorlarni jalb etish asosida pedagogika kolleji o'quvchilarida kasbiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan trening mashg'ulotlarini uzluksiz tashkil etib borish maqsadga muvofiqdir.

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 1992. – 71 b.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari – T.: O‘zbekiston, 1997. – 315 b.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. – T.: O‘zbekiston, 1999.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008. – 176 b.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 59 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni// «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B. 20-29.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»// «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B.31-61.
8. Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar – T.: O‘zbekiston, 2001. – 80 b.
9. Avesto. / A.Mahkam tarjimai. T.: Sharq, 2001. – 385 b.
10. Абдираззаков А.А. Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Т., 1995. 24 с.
11. Абдукаримов Х. Профессиональное воспитание личности учителя в процессе непрерывного педагогического образования: Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Т., 1997. – 46 с.
12. Абдуллаева М.Х. Интеграция как средство обогащения интеллектуального и воспитательного потенциала занятий по гуманитарным дисциплинам // Формирование интеллектуального, духовно-нравственного и физического потенциала учащихся общеобразовательной школы Республики Узбекистан на современном этапе. – Ташкент: УЗНИИПН им. Т.Н.Кары Ниязи, 2005. – С.137-149.
13. Абдуллаева Ш.К. Технология преподавания общественных наук в учебных заведениях среднего специального профессионального образования (на примере учебной дисциплины «Основы духовности»): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2001. – 18 с.
14. Абдуллаев М. Введение в этику. – Наманган: 1998. – 94 с.

15. Абдуллажонов М.А. Формирование профессиональных качеств будущего учителя в процессе обучения в педвузах: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Т., 1991. – 21 с.
16. Абдуманнотов А.М. Алишер Навоий мероси асосида бошлангич синф ўқувчиларининг маънавий тушунчаларини шакллантириш («Хайрат ул-аброр» дostonи мақолатлари мисолида): Педагогика фанлари номзоди. ... дисс. – Т., 2004. – 156 б.
17. Абдунабиев А.Г. Вклад в мировую цивилизацию (из истории зарождения, становления и развития материальных и духовных культур в Узбекистане). – Т.: Узбекистан, 1998. – 178 с.
18. Абдурахимов Б. Художественная культура Узбекистана: XX век. – Т.: Узбекистан, 2000. – 180 с.
19. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim: (Din, falsafa, hayot, ma'naviyat va ma'rifat saboqlari). – Т.: Movarounnahr, 2002. – 720 б.
20. Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug'ati. – Xo'jand: Rahim Jalil nomidagi Davlat nashriyoti, 1997. – 95 б.
21. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 б.
22. Abu Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan). – Т.: Meros, 1991. – 47 б.
23. Авезов Ш. Экологическое воспитание старшекласников сельской школы в процессе краеведческой деятельности: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т., 1993. – 19 с.
24. Ажибаева А.Ж. Реализация личностно-ориентированного подхода в профессиональном воспитании будущего учителя: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Бишкек, 2007. – 23 с.
25. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – Т.: TDPU, 2000. – 52 б.
26. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: ТГПУ, 2003. – 192 с.
27. Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. – Т.: Fan, 2001. – 52 б.
28. Аль-Джинди Н.А. Педагогические идеи Абу Насра аль Фараби: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 1991. – 17 с.
29. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. – Т.: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 88 б.
30. Ангеловский К. Учителя и инновации / Книга для учителя. Перевод с македонского В.П. Диденко. – М.: Просвещение, 1991. – 158 с.
31. Аннамуратова С.К. Художественно-эстетическое воспитание школьников Узбекистана. – Т.: Fan, 1991. – 369 с.

32. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari: Psixologiya fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T.: 2002. – 22 b.
33. Арипов М. Гуманизм Алишера Навои. – Т.: Узбекистан, 1991. – 223 с.
34. Артыков Н. Формирование нравственной личности учащихся на основе национальных и общечеловеческих ценностей: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – Т., 2000. – 37 с.
35. Ахмеджанов М.М. Диагностика подготовленности педагога к профессиональной деятельности: Автореф.дисс. ... канд.пед.наук. – Т.: 1994. – 23 с.
36. Лихачёв Б.Т. Педагогика. Курс лекций. – М.: Юрай-Издат, 2003. – 607 с.
37. Маркова А. Н. Психология труда учителя /Кн. для учителей. – М.: Просвещение, 1993. – 190 с.
38. Мартишина Н.В. Ценностный компонент творческого потенциала личности педагогика// Педагогика. – М., 2006.- № 3. – С.48-57.
39. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования/ Под ред. Е.С.Полат. – М.: Академия, 2003. – 272 с.
40. «Оила педагогикаси» фани ишчи дастури. / Тузувчи: А.Ш.Мухсиева. – Т.: ТДПУ, 2007. – 12 б.
41. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2000. – 305 b.
42. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000. – 79 b.
43. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 132 b.
44. Ochilov.M. Muallim – qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001. – 429 b.
45. Ратанова Т.А., Шляхта Н.Ф. Психодиагностические методы изучения личности. – М.: ВЛАДОС, 1998. – 264 с.
46. Raximov B.X. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2004. – 160 b.
47. Рогов Е.И. Личность учителя: теория и практика. – Ростов-на-Дону.: Феникс, 1996. – 225 с.
48. Столяренко А.М. Общая педагогика. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. – 479 с.
49. Столяренко Л.Д. Педагогика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 448 с.
50. Уринова Н.М. Социально-педагогические особенности подготовки будущих учителей к воспитательной работе в процессе

- профессиональной подготовки: Дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2005. – 172 с.
51. Urishov Sh. O'qituvchining pedagogik madaniyati. // Xalq ta'limi. – T., 2006. - №2. – B. 46-49.
52. Falsafa: qomusiy lug'at (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b.
53. Фёдорова С.Н. Профессиональная культура педагога// Педагогика. – М., 2006.- № 2. – С.65-70.
54. Харламов И.Ф. Педагогика в вопросах и ответах. – М.: Гардарики, 2001. – 256 с.
55. Шепилова Н. Моделирование процесса социально-педагогической адаптации студентов вуза// Дошкольное воспитание. – М., 2005.- № 6. – С.119-121.
56. Юлдашев Д.Г. Системы повышения квалификации педагогических кадров. – Т.: Шарк, 1996. – 160 с.
57. Юзликаев Ф.Р. Теория и практика интенсификации дидактической подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале педагогических дисциплин): Дис. ... докт. пед. наук. – Т., 2005. – 303 с.
58. Haydarova O. Pedagogik kasbga tayyorlik samarasi. // Xalq ta'limi. – T., 2004. - №2. – B.31-33.
59. Halimmetova R. O'qituvchi kasbi va shaxsning pedagogik mahorat qirralari. // Xalq ta'limi – T., 2003. - №2. – B.34-38.
60. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 186 b.
61. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. – T.: Sharq, 2004. – 208 b.
62. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 488 b.
63. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 464 b.

ILOVALAR

1-so'rovnoma

Sizdan mazkur so'rovnoma savollariga javob berishingizni so'raymiz.

1. O'qituvchilik kasbini egallashni xohlaysizmi?
2. O'zingizni o'qituvchi rolida tasavvur qila olasizmi?
3. O'zingizni qanday o'qituvchi sifatida tasavvur qilasiz?
4. Sizing idealingizdagi o'qituvchi qanday?
5. O'qituvchi uchun qanday fazilatlar sizda mavjud?
6. O'qituvchi uchun zarur qanday fazilatlarni o'zingizda mavjud emas, deb hisoblaysiz?
7. Qanday pedagogik ko'nikmalarga egasiz?
8. Qanday pedagogik ko'nikmalarni hali o'zlashtirmagansiz?
9. Hozirda o'zlashtirmagan ko'nikmalingizni qachon va qanday qilib rivojlantirmoqchisiz?
10. Pedagogik amaliyot sohasidagi faoliyatingizni qanday baholaysiz?
11. Pedagogik faoliyatga tayyorlashning qaysi sohalarida kamchiliklar mavjud deb hisoblaysiz:
 - nazariy jihatdan tayyorlash sohasida;
 - psixologik jihatdan tayyorlash sohasida;
 - pedagogik muloqotga tayyorlash sohasida;
 - metodik jihatdan tayyorlash sohasida;
 - amaliyotga tayyorlash sohasida;
12. Pedagogik qobiliyatingizni to'la namoyon etishingizga nima xalaqit beradi? Pedagoglik kasbini muvaffaqiyatli egallashingizda-chi?

So'rovnomada ishtirok etganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz!

2-so'rovnoma
(1-kurs o'quvchilari uchun)

O'z kasbiy tayyorgarlik jarayoningizni qanday tasavvur qilasiz?
(fikringizga mos javob ostiga chizing).

1. Ma'ruzalar tinglash.
2. Ma'ruzalarni konspektlash.
3. Darsliklardan konspektlar yozish.
4. Qo'shimcha adabiyotlarni konspektlash.
5. Mavzu bo'yicha mustaqil ravishda adabiyotlarni o'rganish.
6. O'qituvchining talabi bo'yicha seminarlarga tayyorlanish va javob berish.
7. Seminarlarda doimiy ravishda javob berib borish.
8. Kurs ishlarini yozish (qanday mavzu bo'yicha?).
9. Referatlar ustida ishlash (mavzusini ko'rsating).
10. Pedagogika fanining qanday masalalari Sizni qiziqtiradi?
11. Qanday pedagogik muammolarni o'rganishni xohlardingiz?
12. Qandaydir darajada pedagogik tajribaga egamisiz?
13. O'qituvchilarni tayyorlashda eng muhim narsa nimada, deb o'ylaysiz?
14. Qanday pedagogik faoliyat turlarini o'zlashtirishingiz lozim?
15. O'qituvchilik kasbining murakkabligi nimada, deb o'ylaysiz?
16. O'qituvchi faqat o'z fanini bilish bilan cheklanishi kerakmi?
17. O'qituvchining shaxs va mutaxassis sifatidagi rivojlanishini nimalarni o'z ichiga oladi? Nima uchun?

So'rovnomada ishtirok etganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz!

3-so'rovnoma

1. Sizningcha, o'qituvchi qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak?
2. Sizningcha, o'qituvchining kasbiy yetukligi nimadan tashkil topadi?
3. O'qituvchilik kasbi boshqa kasblardan nimasi bilan farq qiladi?
4. O'qituvchining maktabdagi vazifalari qanday?
5. Quyidagi sifatlarning qaysilari o'qituvchi uchun eng muhim va zarur, deb hisoblaysiz (tegishli sifatning ostiga chizing)?

o'z fanini bilish;
materialni tushunarli
bayon eta olish;
yuksak aql-zakovatga ega bo'lish;
vijdonli bo'lish;
rostgo'ylik;
qattiqqo'llik;
talabchanlik;
adolatlilik;

intizomlilik;
xushmuomalalik;
mas'uliyatlilik;

va'daga vafodorlik;
yuksak umumiy madaniyatga
egalik;
aktyorlik mahorati;
ijodkorlik;
emotsional barqarorlik;
yangilikka moyillik;
tashkilotchilik qobiliyati;
o'quvchilarga nisabatan mehr-
muhabbat;
xushchaqchaqlik;
empatiya;
o'z ustida tinmay ishlash.

So'rovnomada ishtirok etganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz!

1. «Pedagogik muloqotda demokratik uslub» deganda Siz nimani tushunasiz?
2. O'qituvchi tomonidan quyiladigan talablar va o'quvchi (o'quvchi)ga beriladigan erkinlik hamda mustaqillik o'zaro uyg'un bo'lishi mumkinmi?
3. O'quvchilar bilan hamkorlik qilish sharoitida o'qituvchining mavqei saqlanib qoladimi, unga putur yetmaydimi?
4. Shaxsda intizomlilik, mas'uliyatlilik, faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi sifatlar o'zaro uyg'un bo'lishi mumkinmi?
5. Bozor munosabatlari sharoitida jamoa «tarbiyaviy ta'sir kuchi» bo'lib qola oladimi?
6. Zamonaviy o'quvchilar jamoasi individuallikning rivojlanishiga yordam bera oladimi?
7. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining qanday turlarida uning uchun o'z qobiliyatlarini to'la-to'kis namoyon etishi uchun eng ko'p imkoniyat mavjud bo'lgan?
8. Siz yana qanday sifatlarni qo'shgan bo'lardingiz?

So'rovnomada ishtirok etganingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz!

1. O'z-o'zini tahlil qilish kartasi
(kerakli jumlaning tagiga chizing)

1. Oliy ta'lim muassasasiga kirguningizga qadar:
 - pedagogik tajribaga ega bo'lmaganman;
 - pedagogik tajribaga egaman (qayerda ishlagansiz va necha yillik stajga egasiz? – MTM, maktab, bolalar yozgi dam olish oromgohi, __ yillik.).
2. Men tarbiyalanuvchilar bilan munosabatimni o'z nuqtayi nazarimga asoslangan holda tashkil etdim.
3. Oliy ta'lim muassasasida o'qish davrida mening pedagogik tajribam yanada, mukammallashdi.
4. Menga o'quvchilar bilan muloqotga kirishish oson (qiyin) bo'ldi.
5. Men o'zimni yangi faoliyatda noqulay his qildim.
6. Mening o'quvchilar bilan munosabatim muvaffaqiyatli chiqdi va men pedagogik faoliyatdan qoniqish hosil qildim.
7. Men bolalarni tushuna olaman va ular bilan muloqotga kirishishning ishonchli usullarini bilaman.
8. Mening muloqot uslubim (keraklisining tagiga chizing) – avtoritar, demokratik, liberal, insonparvar.
9. Men mehnat jarayonida shaxsiy nuqtayi nazarlarimdan ma'lum darajada farq qiluvchi qarashlar va qadriyatlarni idrok etaman.
10. Men boshqa odamlar, shu jumladan, o'quvchilarning his-tuyg'ularini tezda anglay olaman va ularni tushunishga harakat qilaman hamda muloqotga kirishish jarayonida buni hisobga olaman.
11. Men o'zimning pedagogik faoliyatim natijalaridan qoniqmayman.
12. Men pedagogik majburiyatni uddalay olaman va ijobiy natijalarga erishaman.

2. O'qituvchi professiogrammasi

A

Kasbga muhabbat.

O'quvchilarga e'tiborli va mehrli munosabat.

O'zida intizomlilik, ozodalik, saronjom-sarishtalik, jamoaviylik, burchni anglab yetish, ishga muhabbat, olijanoblik, ikkiyuzlamachi bo'lmaslik mazmunini aks ettiruvchi o'qituvchining namunaviy xulq-atvori.

O'ziga talabchanlik, fan asoslarini, fanni o'qitish metodikasini, psixologik tayyorgarlik, umumiy eruditsiya, keng madaniy saviya, pedagogik mahoratni o'zlashtirish, pedagogik mehnat texnologiyasini, tashkilotchilik ko'nikma va malakalarini, pedagogik takt, pedagogik texnikani egallash, muloqot texnologiyasini, notiqlik san'atini, ilmiy ijodkorlikni, o'z kasbiga ijodiy munosabatda bo'lishni egallash.

B

Jismoniy sog'lom.

Bosiq xarakterli.

Irodaning mustahkamligi.

Tadbirkorlik, tashabbuskorlik.

Tashkilotchilik ko'nikma va qobiliyatlari.

Umumiy ma'lumotga egalik va o'z fanini chuqur bilish.

Aqliy salohiyatini yangi axborotlar bilan boyitish.

Zamonaviy refleksologiya, pedagogika va metodikaning asosiy ma'lumotlari bilan tanishlik;

O'z fanini o'qitish metodikasi bilan tanishlik.

O'z o'quvchilari jamoasi(guruh, auditoriya)dan xabardorlik.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tayyorgarlik.

Ijtimoiy hayotga qiziqish va unda faol ishtirok etish.

Amalga oshirilayotgan ishning maqsad va vazifalarini aniq va ravshan anglash.

V

Ta'lim-tarbiya metodlari va metodikasini; umumiy eruditsiya va pedagogik mahoratni; ta'lim va tarbiyaning pedagogik-psixologik asoslariga doir bilimlarni egallash; maqsadga yo'naltirilganlik; TTV va ta'limning yangi metodlarini egallash; bolalarga muhabbat; bolalarni tushuna olish; tarbiya metodlarini bilish va ularni qo'llay olish; optimizm, odamlarga ishonch; maqsad qo'ya olish va unga erishish yo'llarini izlab topish; o'z vaqtini to'g'ri

taqsimlay olish va boshqalarning vaqtini qadrlash; tizimli va rejalashtirilgan tarzda kasbiy darajani oshirish; ijodkorlikka qobiliyatlilik; yuksak axloqiy sifat; ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish; hammaga shaxsiy namuna bo'la olish.

1. Tashqilotchilik.
2. Intizomlilik.
3. Mehnatsevarlik.
4. Ozodalik.
5. Xushmuomalalik.
6. Bosiqlik.
7. Olijanoblik.
8. Adolatlilik.
9. Talabchanlik.
10. Fanni bilish.
11. Materialni bayon qila olish.
12. Ishni tashkil eta olish.
13. O'qitish mahorati.
14. Ziyraklik.
15. Samimiylik.
16. Axloqiy soflik.
17. O'quvchilarga ishonch.
18. Namunali xulq-atvor.
19. O'qituvchining obro'si.
20. Adolatsizlikka murosasizlik.

MUNDARIJA

Soʻz boshi..... 3

I bob. PEDAGOGIKA KOLLEJI OʻQUVCHILARIDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Pedagoglik kasbining tarixiy taraqqiyoti va jamiyatda tutgan oʻmi..... 5
- 1.2. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va oʻziga xosliklari..... 16
- 1.3. Zamonaviy pedagog shaxsi modelining umumiy tavsifi..... 23

II bob. TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIKA KOLLEJI OʻQUVCHILARIDA KASBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY-TEXNOLOGIK JIHATLARI

- 2.1. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida pedagogika kolleji oʻquvchilarida kasbiy sifatlarni shakllantirish mazmuni..... 27
- 2.2. Trening mashgʻulotlari asosida oʻquvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi..... 32
- Xulosa..... 47
- Foydalanilgan adabiyotlar 50
- Ilovalar..... 54

QAYDLAR UCHUN

**NODIRA EGAMBERDIYEVA, BEGZOD XODJAYEV,
DILOROM ASQAROVA**

**TABAQALASHTIRILGAN
YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIKA
KOLLEJI O'QUVCHILARIDA KASBIY
SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH**

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M. Xolmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhiha:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

**E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 09.10.2015.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 3,75. Nashriyot bosma tabog'i 4,0.
Tiraji 500. Buyurtma №140.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**

FAN VA 
TEXHOLOGIYALAR

ISBN 978-9943-990-39-5



9 789943 990395